

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

**133- MG' guruhi talabasi Madrimov Ikromning
5111600 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIV ISHI

**Mavzu: O'zbekiston Respublikasining suvereniteti: asosiy belgilari va
tashqi siyosat**

Ilmiy rahbar:

dots. Y. Ollamov

Urganch 2017 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....3

1-BOB. O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari

- | | |
|--|----|
| 1.1. Davlat suvereniteti tushunchasi..... | 6 |
| 1.2. Davlat chegarasi va hududi suverenitetning asosiy belgisi sifatida..... | 10 |
| 1.3. Suverenitet fuqaro huquqiy maqomining omili sifatida..... | 16 |

II. BOB. Tashqi siyosat - Davlat suverenitetining muhim elementi sifatida

- | | |
|--|----|
| 2.1. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning subyekti..... | 27 |
| 2.2 O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorligi..... | 47 |
| 2.3 Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi a’zolarining huquqiy maqomi..... | 59 |

Xulosa.....78

Adabiyotlar.....84

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kunidagi Farmon¹i asosida qabul qilingan. Mazkur farmonning 5 bandi «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar» deb nomlangan.O‘zbekistonda davlat hokimiyati halqnniki faqat unga xizmat qiladi. Xalq suvereniteti davlat va milliy suverenitetlarida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda suverenitetning manbai va yagona egasi bo‘lgan xalq uni, eng avvalo, davlat hokimiyati orqali davlat suvereniteti sifatida amalga oshiradi.

Millat suvereniteti -millatning siyosiy va huquqiy holati tushuniladi. Har bir millat o‘zining suveren siyosiy va huquqiy holatiga ko‘ra, o‘z siyosiy holatini, o‘z irodasi bilan, boshqa xalqlarning aralashuvvisiz mustaqil tarzda belgilaydi, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo‘lini tanlaydi va o‘z milliy davlatini tuzadi¹².

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo‘lib, uning mustaqil yashash huquqini bildiradi.

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo‘lib, uning mustaqil yashash xuquqini bildiradi. Bu xuquqni ma'lum darajada amalga oshirilishi, ya'ni o‘zinig milliy davlat shaklini tanlashi, yakka holda yoki boshqa millatlar bilan birgalashib davlat tuzishi milliy suverenitetning amal qilishi hisoblanadi.

Davlat hokimiyatining oliyligi, o‘sha davlatdagi barcha huquqiy munosabatlarni belgilaganligida, umumiy huquqiy tartibotning o‘rnatilganligida hamda davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyatlarini belgilanganligida namoyon bo‘ladi. Davlatning butun hududida oliy davlat organi tomonidan chiqarilgan Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligi davlat hokimiyati oliyligini bildiruvchi asosiy belgisi sifatida tan olinadi.

¹2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevral kunidagi Farmon

Shunday qilib, davlat hokimiyatining oliyligi bu hokimiyatning shunday holatiki, bunda boshqa bir hokimiyat undan ustun bo‘lmaydi va bo‘la olmaydi. Biroq, hokimiyatning oliyligi uning cheksizligini bildirmaydi. Konstitutsiyaviy davlatda u doimo qonun bilan cheklab qo‘yiladi. Davlatning suveren hokimiyati o‘zga barcha hokimiyatlardan ustun turadi. Davlat hokimiyatining oliyligi uni yagona siyosiy hokimiyat sifatida rasmiylashtiradi, bu davlat hokimiyati bilan muvoziy tarzda boshqa biron-bir siyosiy hokimiyatning mavjud bo‘lishini istisno etadi.

Davlat suverenitetining belgilaridan biri - fuqarolik masalasi ilmiy nazariy jihatdan o`rganilgan. Fuqarolik va uning prinsiplari, fuqaroning huquqiy maqomi, fuqarolikka ega bulish, fuqarolikdan chiqish, fuqarolikni yuqotish va qayta tiklash hamda fuqarolik to`g’risidagi ishlarni hal qilish tartibi masalalari amaldagi qonunlar asosida nazariy jihatdan yoritib beriladi.

Mavzuning ilmiy o‘rganilganlik darajasi. Suverenitettabiat, ijtimoiyjamiyathayotidatutgano‘rni, huquqiyasoslارiga bag’ishlangan ko‘plab monografiya, risola va ilmiy maqolalar respublikamizda chop qilingan. Jumladan, Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tashkiloti to‘g’risida, uning xalqaro huquqda, xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, a’zodavlatlar bilan hamkorligi masalalari xususidagi mavzular R.Myullerson, F.Mayor, G.Tunkin,E.Shibaeva kabi olimlar asarlarida yoritibberilgan.¹O‘zbekistonlik olimlardan F.Bakaeva, I.Bobokulov,A.Mamatkulov, G.Matkarmova, X.Odilqoriev, A.Saidov, L.Saidova, Y.Umaroxunov, R.Hakimov,²kabi olimlar o‘z asarlarida xalqaro tashkilotlarning tuzilishi, organlari, faoliyati va ixtisoslashtirilgan muassasalar hamda ularning vakolatxonalari haqida fikr yuritganlar.

¹Тузмухамедов Р.А. Центральноазиатский вектор международных отношений. М.1993; Менахем К. Специализированные учреждения ООН. - М., 1955; Е.Шибаева, М.Поточный. Праевые вопросы структуры и деятельности международных организаций - М.: MGU, 1988; Шибаева Е. Правовой статус межправительственных организаций - М.: 1972;

² U.Tadixanov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom.T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998; Юлдашева Г. Республика Узбекистан субъект международного права - Nukus: Bilim, 1995; Saidova Л.А. Дипломатическое право - Т: UMED, 2001; Saidova L.A. Diplomatik huquqiy va davlatning ichki qonunchilik tizimi. Hayot va qonun, - Т., 2000. - №2. - 28-32-6. R. Hakimov. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. - Т: G'. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001; Muminov A.R. O‘zbekiston Respublikasining YUNESKO bilan hamkorligining xalkaro-huquqiy masalalari: yurid. fan. nomz. diss, avtoref. - Т.: UMED, 2005; Хакимов Р.Т. Содружество наций. Т.1. - М. - 1993

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishda davlat suverenitetining umumiyligi qoidalari, o‘ziga xos xususiyatlari, huquqiy asoslarini har tomonlama yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- suverenitetning umumiyligi tavsifi va xususiyatlari;
 - suverenitetning asosiy belgilari va shakllari;
 - davlat suverenitetning tashqish siyosat faoliyatidagi ahamiyati;
 - O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning subyekti sifatidagi maqomini yoritib berish;
 - O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorligi;
 - Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi a’zolarining huquqiy maqomi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning martaillaridan umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari o‘quvchi va talabalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishda hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish-kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi⁹³ sahifani tashkil etadi.

1-BOB. O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining

konstitutsiyaviy asoslari

1.1. Davlat suvereniteti tushunchasi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi «O‘zbekiston - suveren demokratik respublika» ekanligini e’lon qiluvchi va qonuniy mustahkamlovchi muhim qoidadan boshlanadi. Xususan, uning 1-moddasida «O‘zbekiston - suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi», deb belgilangan.

Davlat xalqning rasmiy vakili sifatida o‘z fuqarolarining irodasini ifoda etadi. Faqat suveren davlatgina fuqarolarning huquq va manfaatlarini to‘la va har tomonlama ta’milashi mumkin.

Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan ham to‘la mustaqilligi tushuniladi. Suverenitet davlat hokimiyatining alohida xususiyati bo‘lish bilan bir paytda, davlatning muhim belgisi ham hisoblanadi. O‘zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etishning eng muhim konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri davlat suvereniteti prinsipi hisoblanadi. «Davlat suvereniteti» iborasi fransuzcha «yuqori hokimiyat», «oliy hokimiyat» degan ma’noni anglatadi. Suveren davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatida o‘zining mustaqil va oliy davlat hokimiyatiga, ya’ni qonun chiqaruvchi hokimiyatiga ega bo‘ladi. «Suverenitet» degan ibora davlat-huquqiy ma’noda birinchi marta XVI asrda fransuz olimi J.Boden tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, suverenitet «davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir».

Xalq suvereniteti haqidagi ilmiy ta’limot dastlab feodalizmga qarshi kurash yo‘lida ishlab chiqilgan edi.

“Xalq suvereniteti” nazariyasi fransuz olimi Jan Jak Russo tufayli burjua revolutsiyasi arafasida o‘zining klassik qiyofasini topdi Uning fikricha “ umumiyl iroda” tomonidan boshqariladigan hokimiyat- suverenitet deb ataladi.

O‘zbekiston xalqining suvereniteti mamlakatimizda hokimiyatning to‘laligicha halqqa tegishliligin bildiradi. Xalq hokimiyatning yagona manbai va subyekti, unga hech kim o‘z irodasini o‘tkaza olmaydi. Xalq suverenitetining mazmuni shundan iboratki, uning hokimiyati boshqa subyektga berilmaydi va bo‘linmaydi.

O‘zbekistonda davlat hokimiyati xalqniki faqat unga xizmat qiladi. Xalq suvereniteti davlat va milliy suverenitetlarida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda suverenitetning manbai va yagona egasi bo‘lgan xalq uni, eng avvalo, davlat hokimiyati orqali davlat suvereniteti sifatida amalga oshiradi.

Millat suvereniteti -millatning siyosiy va huquqiy holati tushuniladi. Har bir millat o‘zining suveren siyosiy va huquqiy holatiga ko‘ra, o‘z siyosiy holatini, o‘z irodasi bilan, boshqa xalqlarning aralashuvvisiz mustaqil tarzda belgilaydi, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo‘lini tanlaydi va o‘z milliy davlatini tuzadi¹¹.

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo‘lib, uning mustaqil yashash xuquqini bildiradi.

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo‘lib, uning mustaqil yashash xuquqini bildiradi. Bu xuquqni ma'lum darajada amalga oshirilishi, ya'ni o‘zinig milliy davlat shaklini tanlashi, yakka holda yoki boshqa millatlar bilan birgalashib davlat tuzishi milliy suverenitetning amal qilishi hisoblanadi.

Davlat hokimiyatining oliyligi, o‘sha davlatdagi barcha huquqiy munosabatlarni belgilaganligida, umumiyl huquqiy tartibotning o‘rnatilganligida hamda davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyatlarini belgilanganligida namoyon bo‘ladi. Davlatning butun hududida oliy davlat organi tomonidan chiqarilgan Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligi davlat hokimiyati oliyligini bildiruvchi asosiy belgisi sifatida tan olinadi.

¹¹Qarang: А.И. Лепешкин. Федерализм -М., 1977.- С. 253-254

Shunday qilib, davlat hokimiyatining oliyligi bu hokimiyatning shunday holatiki, bunda boshqa bir hokimiyat undan ustun bo‘lmaydi va bo‘la olmaydi. Biroq, hokimiyatning oliyligi uning cheksizligini bildirmaydi. Konstitutsiyaviy davlatda u doimo qonun bilan cheklab qo‘yiladi. Davlatning suveren hokimiyati o‘zga barcha hokimiyatlardan ustun turadi. Davlat hokimiyatining oliyligi uni yagona siyosiy hokimiyat sifatida rasmiylashtiradi, bu davlat hokimiyati bilan muvoziy tarzda boshqa biron-bir siyosiy hokimiyatning mavjud bo‘lishini istisno etadi.

Davlat hokimiyatining birligi davlatning oliy hokimiyatini tashkil qiluvchi yagona organ yoki organlar tizimi mavjud bo‘lishida ifodalanadi. Davlat hokimiyati birligining yuridik belgisi, davlat hokimiyati oliyligini tashkil qiluvchi organlar tizimining bevosita davlat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan vakolatlarni qamrab olishini anglatadi. Shu tizimga tegishli organlar esa, bir xil subyektlarga, bir xil vaziyatlarda o‘zaro istisno qiluvchi xulq-atvor qoidalarini ifodalay olmaydi. Suveren davlat hokimiyatining asosiy xususiyati uning mustaqilligi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi, shu davlatning boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita munosabatlarida o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekiston milliy davlati ijtimoiy, iqtisodiy, va ma’naviy kamolot, istiqlol va taraqqiyot yulini ishlab chiqdi. Mazkur yo‘l mustaqil O‘zbekistonning ichki va tashqi rivojlanish strategiyasini belgilab berdi. O‘zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yulining mohiyati va xususiyatlari Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlarida, maqolalari va nutqlarida, mamlakatimiz parlamenti qabul qilgan qonunlarda o‘z aksini topgan.

«... O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ilgariga Konstitusiyalardan farqlaridan biri shundaki, unda ilk bor mustaqil davlatning asosiy prinsiplari Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan»¹.

¹Ollamov Y. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini urganish jarayonida yoshlар dunyoqarashining shakllanishi. Urganch, «Xorazm», 2004. 12-bet

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasingning bиринчи боби «Давлат суверенитети» деб номланиб, мамлакатимизнинг суверен давлат сифатидаги барча xусусиятларини узда ифодалаган.

Sуверенитет - гар qандай давлатнинг eng muhim ajralmas belgilaridan biri. Shu bois uzbek davlatining mustaqilligi, suvereniteti Asosiy qonun - Konstitutsiyaning 1-moddasida o`z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasingning 3- moddasida «O‘zbekiston Respublikasi uzining milliy давлат ва ма’мурӣ hududiy tuzilishini, давлат hokimiysi va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O‘zbekistonning давлат chegarasi va hududi daxlsiz va bo`linmasdir» degan normalar bilan mustahkamlab qo`yilgan.

O‘zbekiston fuqarolari, uзларining nasl nasabi irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat’i nazar, O‘zbekiston xalqini tashkil etadi. Asosiy qonun Konstitutsiya O‘zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urfatatlari va milliy an’analari hurmat qilinishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

«O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o`z давлат ramzlari - bayrog’i, gerbi va madhiyasiga ega»¹. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog’i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan qonun bilan tasdiqlangan. O‘zbekistonning Davlat bayrog’i мамлакатимиз hududida ilgari mavjud bo`lgan g’oyat qudratli sultanatlar bayrog’iga xos bulgan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda, respublikaning bugungi tabiatiga muvofiq keladigan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi uzligini ham aks ettiradi².

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., «O‘zbekiston», 2015. 4-bet.

² Bayroqdagи havo rang - zangori osmon va musaffo suvning, yer va osmondagи hayot mianbalarining ramzi. Oq rang esa - tinchlik va poklik timsoli. Bayrog’imizdagi oq rang yosh mustaqil davlatimiz oshib utishi lozim bulgan dovonlardagi yulning yorqin va charog’on bulishi uchun ezgu niyat timsoli sifatida qo`yilgan. Bayroqning qizil rangdagi yellari - har bir tirik joning qon tomirida jushib turgan hayotiy kuchning, barhayotlikning ifodasi. Yashil rang - tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan

O‘zbekistonning Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda tasdiqlangan¹.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yilning 10-dekabrida tasdiqlangan².

O‘zbekistonning muhim milliy timsollaridan biri –o‘z davlat tilidir. O‘zbekistonda davlat tili uzbek tili tug’risidagi norma Konstitutsiyaning 4 moddasida mustahkamlangan bulib, 1989-yil 21-oktyabrda ona tilimizga davlat tili maqomi berildi va 1995-yilda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Davlat tili tug’risida»gi qonuni qabul qilindi³.

1.2. Davlat chegarasi vahududi suverenitetning asosiy belgisisi fatida

Haqiqatdan ham davlat suvereniteti muammosini o‘rganish jarayonida davlat chegarasi va davlat hududi muhim o‘rin egallaydi, chunki bular davlat suverenitetining asosiy va muhim belgisi hisoblanadi.

Davlat chegarasi davlatlar hududini bir-biridan ajratib turuvchi, yer va suv ustidan o‘tuvchi chiziqlardir (belgilardir). Davlat chegarasi muayyan davlatning hududlari doirasini aniq belgilab beradi. Davlat chegarasi dahlsiz va uning buzilishi davlat suverenitetining buzilishi hisoblanadi. Har bir davlat o‘z chegaralari xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha choralar ko‘rish huquqiga ega. Davlat

hayot va hosildorlik ramzi. Bayroqdagi yarim oy va yulduzlar - o‘zbek xalqining kup asrlik an‘analariga sadoqat, musaffo osmon va tinchlikning ramzi. 12 raqami - qadimdan xalqlarimiz orasida mukammallik timsoli bulib kelgan. SHu boisdan ham bayrog’imzga un ikki yulduzning tasviri tushirilgan.

¹ Davlat gerbida tasvirlangan Xumo qushi baxt - saodat va erkinlik ramzi. Xumo qushi o‘zbek xalqi orasida odamlarni baxt - saodatga etaklovchi ilohiy qush sifatida e’zozlab kelingan. Sakkiz qirrali yulduz - musamman tasvirlangan bulib, uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan. Quyosh tasviri - o‘zbek davlati va xalqining hayot yuli hamisha nurli bulishiga bildirilgan ezgu niyat ramzi. Gerbdagi boshhqular - rizq - ruzimiz bulgan g’allaning timsoli, oppoq bulib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g’uzu shoxqlari - serquyosh O‘zbekistonning dong’ini dunyoga taratgan asosiy boyligimiz ramzi. Bug’doy boshqulari va paxta chanoqlarining davlat bayrog’iga uxshagan lenta bilan urab kuyilganligi-mamlakatimizda yashayotgan xalqlar yakdilligining timsoli. Gerbimiz rangli tasvirda bulib, Xumo qushi - kumush rang-da. Kuyosh, paxta chanog’i va «O‘zbekiston» yozuvni - tilla rangda; tog’lar - havo rang buyoqda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz - oq rangda; davlat bayrog’i tasvirlangan tasma - turt xil rangda berilgan.

² Madhiya matnidagi O‘zbekistonning guzal tabiatini, serquyosh ulka ekanligi, vodiylarining oltinga monandligi, xalqining erksevarligi, bag’rida ilmu - fan, ijod singari ulkamizga shon - shuhrat keltiradigan qadriyatlar rivojlantirilayotganligi kuylanadi. SHuningdek, madhiyada O‘zbekistonda yashaydigan xalq-larning doimo uning tinchligi, osoyishtaligi, mustaqillilgi uchun kurashganliklari haqidagi tarixiy haqiqatlar ham uzining badiiy - musiqiy ifodasini topgan.

³ Til – har bir millat uzungining ajralmas belgisidir. O‘zbek xalqining milliy madaniyati va uziga xosligini ifoda etuvchi vosita bulgan o‘zbek tilining har tomonlama rivojlanishini ta’minalash, o‘zbek tilining davlat tili maqomidek salohiyatini izchil va tuliq ruyobga chiqarish umumxalq vazifasidir.

chegarasida qonun orqali davlat tomonidan o‘rnatiluvchi yoki chegaradosh davlat bilan kelishgan holda o‘rnatiluvchi maxsus chegara tartibi mavjud. Qo‘sni davlatlar bilan chegaralar qonun va shartnomalar asosida belgilanadi. Davlat chegaralarini zo‘rlik bilan o‘zgartirish xalqaro huquq tomonidan taqiqlangan.

O‘tish joyiga ko‘ra chegaralar quruqlik, dengiz, daryo, ko‘l, havo va suv osti chegaralariga bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasi Qozog‘iston , Qirg‘iziston , Tojikiston, Turkmaniston bilan quruqlikda, Afg‘oniston bilansuvda (Amudaryoorqali) chegaradosh.

Davlat chegarasi davlatning quruqlik, suv hududi, havo kengliklari va yer ostidagi suverenitetining chegarasini belgilaydi¹.

Davlat chegaralari quruqlikdagi, daryo va ko‘llardagi hamda dengizdagi chegaralarga bo‘linadi. Quruqlikdagi chegaralar deganda, joy relyefidagi o‘ziga xos nuqtalar (masalan, tog‘ cho‘qqilari) yoki jo‘g’rofiy koordinatalarning muayyan nuqtalari orqali, shuningdek, parallelilar va meridianlar orqali o‘tadigan chiziqlar tushuniladi. Daryodagi davlat chegarasi daryolar bo‘yicha o‘tadi, bunda agar xalqaro shartnomalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, ko‘pincha kema qatnaydigan daryolardan – asosiy farvaterner o‘rtasidan yoki daryoning talvegasidan (engchuqurjoylarichizigidan), kemalar qatnamaydigan daryolar (soylar)da esa – ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy irmog‘I o‘rtasidan o‘tuvchi chiziq chegara hisoblanadi. Ko‘llarda va boshqa suv havzalarida Davlat chegarasi chegaralarning ko‘l yoki boshqa suv havzasi qirg‘oqlariga chiqadigan joylarini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq orqali o‘tadi. Ba’zan, agarda ko‘l cho‘ziq shaklga ega bo‘lib, qarama qarshi qirg‘oqlari qo‘sni davlatlarga tegishli bo‘lsa, bu chegara medianal bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin. Agar chegaradosh davlatlar boshqacha shartlashmagan bo‘lsalar, daryo (soy), ko‘l yoki boshqa suv havzasi bo‘yicha o‘tadigan. Davlat chegarasi ularning qirg‘oqlari yoki suv sathi o‘zgarganda ham, daryo (soy) o‘zani u yoki bu tomonga ko‘chganda ham o‘zgarmaydi. Agar

¹ Qurang: YUridik Ensiklopediya. –T., «SHarq», 2008. 114-115 betlar.

davlatning hududiy suv havzasi boshqa davlatlarning xuddi shunday suv havzalari bilan tutashmagan bo‘lsa, ushbu davlatning dengiz chegaralarini har bir davlat o‘z hududiy suv havzalarining tashqi chegarasi bo‘yicha mustaqil ravishda o‘rnatadi. Agar ikki yoki undan orti davlatlarning hududiy suv havzalari tutash bo‘lsa, ular o‘rtasidagi chegara chizig‘i bitim asosida belgilanadi.

Davlat hududi masalasiga kelganda, albatta biz uni umumiylar geografik o‘rnini, ma’muriy hududiy bo‘linishini ko‘z oldimizga keltirib o‘tishni o‘rinli, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rta va shimoliy qismida joylashgan. Shimoliy sharqda Qirg‘iziston, shimoliy va shimoliy g‘arbda Qozog‘iston, janubiy g‘arbda Turkmaniston, janubiy sharqda Tojikiston Respublikasi bilan, janubda qisman Afg‘aniston bilan chegaradosh. O‘zbekistonning eng shimoliy chekka nuqtasi shimoliy sharqda – Ustyurtplatosida Orol dengizining g‘arbiy sohilida (45° 36’ shimoliyKenglik), eng janubiy nuqtasi – Surxondaryo viloyatida Termiz shahri yonida (37° 11’ shimoliykenglik), g‘arbiynuqtasi – Ustyurt platosida (56° sharqiyuzunlik), sharqiy nuqtasi Farg‘ona vodiysining janubiy sharqida, Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegara joyda (37° 10’ sharqiyuzunlik). Shimoliy va janubiy chekka nuqtalar orasidagi masofa 925 km, g‘arbiy va sharqiy nuqtalar orasi 1400 km.

Respublika hududi janubiy sharqdan shimoliy g‘arbgaga cho‘zilgan va yer yuzasi ham shu yo‘nalishda yirik daryolar oqimiga mos pasayib boradi. Mamlakatning shimoliy g‘arbiy chekkasida Ustyurt bilan Qizilqum oralig‘ida Orol dengizi joylashgan. Respublika maydonining qariyb 4/5 qismi tekislik, oz qismi tog‘, adirvatog‘ oldidan iborat. O‘zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqi bo‘tib, Oroldengiziga quyiladi. Bu ikki azim daryo orasidagi hudud Turon pasttekisligi deb ataladi. Bu tekislikning ko‘p qismi Qizilqumdan iborat, ba’zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqiy va janubiy sharqiy qismida TyanShan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Bu tog‘lar orasida Farg‘ona, Zarafshon, Kitob Shahrисабз, Surxon Sherobod,

Chirchiq Ohangaron kabi kattacho‘kmalar – vodiylar joylashgan. Vodiylar sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, aholining asosiy qismi shu yerlarda yashaydi. Tog‘larning cho‘qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan. Respublikaning g‘arbiy va shimoliy g‘arbiy qismiga brogan sari ulkan tog‘lar pasayib, tog‘ yon bag‘ri tekisliklari go‘zal xushmanzara vodiylarga aylanadi. So‘ng vodiylar tugab, asta sekin cho‘llar, poyonsiz qumliklar boshlanadi.

Shu munosabat bilan birga alohida ma’muriy hududiy bo‘linishini ko‘rib chiqishlikni joiz deb bilamiz.

O‘zbekiston hududi 1917-yilgi oktyabr to‘ntarishiga qadar ma’muriy jihatdan Turkiston general gubernatorligi (Turkistono‘lkasi) hamda Rossiyaning yarim mustamlakalari bo‘lmish Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo‘lingan edi. Asosiy ma’muriy hududiy birliklar viloyat (oblast), uezd, volost va qishloq jamoasidan iborat bo‘lgan. Xususan, Xiva xonligi 20 beklik, 2 noiblik va Xiva shahriga bo‘lingan. Beklik va noibliklar o‘z navbatida aminlik va masjidlarga bo‘lingan. Buxoro amirligi hududi 28 beklikdan iborat bo‘lib, ular amlok va aminliklarga bo‘lingan.

1917-yilgi oktyabr to‘ntarishidan keyin podsho Rossiyasi mustamlakachilar o‘rnini egallagan Sovet mustamlakachilar (qizil imperiya) milliy respublikalar tuzish niqobi ostida amirlik va xonliklarni mahv etib, yaxlit Turkiston o‘lkasini parchalab tashladilar.

1918-yil 30-aprelda Sho‘rolar o‘lka s’ezdida tasdiqlangan «Rossiya Federatsiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to‘g‘risida Nizom»da Turkiston Respublikasining davlat tuzumi, uning hududiy chegaralari belgilandi. 1924-yilga kelib Turkiston ASSR olti viloyatga: Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Zakaspiy (Turkmaniston), Ettisuv, Amudaryo viloyatlari, 30 uezd va 473 volostga bo‘lib tashlanadi.

1920-yil aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e’lon qilinib, konstitutsiya qabul qilindi. Respublikaning butun hududi 28 tumanga bo‘lindi.

1924-yil respublika 3 viloyat (qozoq, qoraqalpoq, Yangi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo‘lindi. Viloyatlar sho‘ro (volost) larga taqsimlandi.

1920-yil 8-oktyabrda sobiq Buxoro amirligi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e’lon qilindi. Respublika hududi 15 viloyat, 58 tuman va 197 kentga bo‘lindi. Shunday qilib, O‘rta Osiyoda uchta sotsialistik deb atalgan davlat: Turk ASSR, BXSR va XXSR tuzildi. Ammo yangi mustamlakachilarni bu ham qanoatlantirmadi. Endi ular mustamlakani boshqarishning ancha qulay shakli «milliy hududiy chegaralanish» deyilgan keyingi bosqichga o‘tdilar¹.

1924-yilda O‘rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish natijasida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O‘zSSR) tuzildi. 1924 yildan 1929 yilgacha Tojikiston ASSR ham O‘zSSR tarkibida bo‘lgan.

1925-yil 29-yanvardan respublikada yagona ma’muriy bo‘linish joriy qilindi. Markazi Samarqand shahri bo‘lgan O‘zSSR 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon, Surhondaryo, Qashqadaryo, Xorazm) ga, 22 uezd va 241 volostga bo‘lindi. 1926-yilda ma’muriyqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi. 1927-yil 1-yanvarda O‘zSSR hududi 10 okrug, 87 tuman va 1746 qishloq kengashidan iborat edi.

1930-yil 17-avgustda okrugga bo‘linish bekor qilindi. 1930-yilning oxirida O‘zSSR tarkibida 9 shahar (respublika poytaxti Toshkent sh.), 73 tuman, 1696 qishloq kengash bor edi.

1932-yil 27-iyunda Xorazm okrugi, 1935-yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi.

1936-yilda Qoraqalpog‘iston ASSR RSFSR dan olinib O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. O‘zSSR ning ma’muriy hududiy bo‘linishi uning 1937-yilgi Konstitutsiyasida rasmiy lashtirildi. Bu vaqtga kelib O‘zSSR tarkibida bir avtonom respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392 qishloq kengashi bo‘lgan.

¹ Qarang: O‘zbekiston ensiklopediyasi. -T., 1997. 11-bet.

1938-yil 14-fevralda O‘zSSR tarkibida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg’ona va Xorazm viloyatlari tuzildi. 1941-yil 6-martda Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, 1943-yil 20-yanvarda Qashqadaryo viloyati tashkil etildi. Barcha viloyatlarda bir qancha tumanlar tuzildi.

1954-yil iyunda 447 qishloq kengashi tarqatib yuborildi. 1957-yil 1-yanvarda O‘zSSR tarkibida: bir avtonom respublika, 9 viloyat, 6 shahar tumani, 155 qishloq tumani, 29 shahar, 57 shaharcha va 993 qishloq kengashi bo‘lgan.

1957 - 1961 yillarda ma’muriyhududiy birliklar bir qadar yiriklashtirildi, viloyat, tuman, qishloq kengashlari soni kamaytirildi. Bu davrda Namangan va Qashqadaryo viloyatlari bekor qilindi. Natijada O‘zSSR tarkibida bitta avtonom respublika, 7 viloyat, 117 qishloq tumani, 754 qishloq kengashi qoldi.

Mirzacho‘lni o‘zlashtirish munosabati bilan 1963-yil 16-fevralda Sirdaryo viloyati tuzildi. 1964-yil 7-fevralda Qashqadaryo viloyati, 1967-yil 18-dekabrda Namangan viloyati, shuningdek ilgari bekor qilingan tumanlar qayta tiklandi, yangilari tuzildi. 1973-yil 29-dekabrda Jizzax viloyati, 1982-yil 20-aprelda Navoiy viloyati tuzildi. 1988-yil 6-sentyabrda viloyatlarni yiriklashtirish maqsadida Jizzax viloyati Sirdaryo viloyatiga, 1989-yil may oyida Navoiy viloyati Samarqand va Buxoro viloyatlariga qo‘sib yuborildi.

1990-yil 16-fevralda Jizzax va Sirdaryo viloyatlari avvalgi chegarasida, 1992-yil 27-yanvarda Navoiy viloyati qayta tiklandi. O‘tgan davrda ko‘pgina aholi yashaydigan joylar shahar va shaharcha (shahar tipidagi posyolka) larga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sho‘rolar davrida ommaviy tus olgan va sho‘rolar tuzumini madh etuvchi joy nomlaribekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki yangi nomlar berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi (1992 yilgi) Konstitutsiyasida (68 modda) O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar,

qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpogiston Respublikasidan iboratligi mustahkamlab qo‘yilgan¹.

1.3. Suverenitet fuqaro huquqiy maqomining omili sifatida

Fuqarolik insonning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasi, fuqaroning muayan davlatga mansubligi bo‘lib, bu narsa ularning o‘zaro huquqlari va majburiyatlari majmuida o‘z ifodasini topadi, fuqaro huquqiy maqomining omili va negizi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat muayyan insonga fuqarolikni berar ekan, uning huquq va erkinliklari to‘la hajmda ro‘yobga chiqishini, mamlakat sarhadlaridan tashqarida himoya etilishini o‘z zimmasiga oladi¹.

BMTning 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi har bir insonning fuqarolikka bo‘lgan huquqini e’lon qildi. Shunga muvofiq, hech kim o‘z fuqaroligidan yoki uni o‘zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Ana shunday qoidalar O‘zbekiston Konstitusiyasida hamda «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g’risida»gi qonunda mustahkamlab qo‘yildi.

Har qanday davlatda, uning davlat tuzilishi shaklidan qat’i nazar, yagona fuqarolik o‘rnataladi. Umum e’tirof etgan qoidaga ko‘ra, har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo‘la oladi. Bu juda muhim qoida. Yagona fuqarolik prinsipi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston fuqaroligini yagona va teng deb belgilash bilan bir qatorda, Konstitutsiya uning teng huquqlilik xususiyatini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir shaxsga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy hayotida mumkin qadar to‘laroq ishtirok etish imkonini beradi. Muayyan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va mamlakat qonunlarida

¹ Қаранг: **O‘zbekiston ensiklopediyasi**. -T., 1997. 11-bet.

mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklarga ega bo‘ladi. Shuningdek, u ma’lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, davlat O‘zbekiston fuqarolarining manfaatlari va erkinliklarini respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Fuqarolikka ega bo‘lish uning asoslariga qarab ikkita asosiy turga bo‘linadi: birinchisi - tug‘ilganlikka qarab olinadigan fuqarolik; ikkinchisi - naturalizatsiya, ya’ni fuqarolikka qabul qilinish natijasida olinadigan fuqarolik. Tug‘ilganda olinadigan fuqarolik tug‘ilgan shaxsning ota onasi muayyan davlatning fuqarosi (qondoshlik prinsipi) yoki shu mamlakat hududida tug‘ilgan shaxs (zamin prinsipi) ega bo‘ladi.

Fuqarolikka qabul qilinish natijasida olinadigan fuqarolik kishining shu mamlakat fuqaroligini berish to‘g’risidagi iltimosnomasi bo‘yicha fuqarolikka qabul qilish yo‘li bilan olinadi.

Bir qancha mamlakatlarda fuqarolikni olish asoslaridagi tafovutlar fuqarolarning huquqiy maqomidagi tafovutlarni belgilaydi. Aytaylik, tug‘ilganda fuqarolikni olgan shaxslargina davlat boshligi etib saylanishi mumkin, fuqarolikka qabul qilinish natijasida fuqarolikni olganlar fuqarolikka qabul qilinganlaridan keyin uzoq muddat passiv saylov huquqidан mahrum bo‘ladilar. O‘zbekiston Konstitutsiyasi 21-moddasining ikkinchi qismida esa, mamlakat fuqaroligiga qanday asoslarda ega bo‘linganidan qat’i nazar, huquq va majburiyatlar tengligi prinsipi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan erkak yoki ayolning O‘zbekiston fuqaroligiga mansub bo‘lmagan shaxs bilan nikohdan o‘tishi o‘z-o‘zidan fuqarolikning o‘zgarishiga sabab bo‘lmaydi. Er-xotindan birining fuqaroligi o‘zgarishi ikkinchisining fuqaroligi o‘zgarishiga olib kelmaydi. Nikohning bekor qilinishi shu nikohdan tug‘ilgan bolalarning yoki farzandlikka olingan bolalarning fuqaroligi o‘zgarishiga olib kelmaydi. Tug‘ilgan paytida ota-onasi O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan bola, qayerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’i nazar, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ota-onasining fuqaroligi har xil bo‘lsa, tug‘ilgan

bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Umum e'tirof etgan qoidaga ko'ra, har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo'la oladi.

Barcha millat va elatlar yagona o'zbek xalqini tashkil etadilar. Demokratik huquqiy davlatda fuqarolik faqat birgina milliy prinsipga, belgiga qarab belgilanmaydi.

Ikki davlat fuqaroligiga mansublik - achinarli hol. Bu bevatanlik bilan barobardir.

O'zbekistonda muayyan millat yoxud etnik guruhlarning ikki davlat fuqarosi bo'lishi uchun na siyosiy, na huquqiy asos bor. Shuning uchun ham Fuqarolik to'g'risidagi qonunga muvofiq; O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxsning ayni bir vaqtda boshqa bironbir davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi. Bu qoida 1930-yilgi Gaaga konvensiyasida mustahkamlangan ikki fuqarolikni tan olmaslik xalqaro prinsipiha ham to'la mos keladi.

Bu O'zbekiston fuqarosi o'z respublikasi va uning idoralari, muassasalari, tashkilotlari bilan munosabatda o'zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini ro'kach qila olmasligini bildiradi, boshqacha aytganda, ayni bir paytda boshqa davlat fuqarosi sifatida o'zligini namoyon eta olmaydi. Bundan tashqari, hech kim o'zini boshqa fuqarolar mavqeidan farq qiluvchi o'ringa qo'ya olmaydi ham.

O'zbekiston fuqarolari – nasl nasabi, irqi, millatidan va boshqa holatlaridan qat'i nazar – teng huquqqa egadir. Konstitutsiyamiz O'zbekiston fuqarosi deb hisoblangan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va milliy an'analari hurmat qilinishini kafolatlaydi.

Fuqarolikdan erkin chiqish huquqini barcha e'tirof etgan: hech kim, agar uning o'zi buni istamasa, davlat fuqaroligida qolishga uni majbur eta olmaydi. Faqat ikki holdagina bunday huquq rad etilishi mumkin: harbiy xizmatga chaqiruv qog'izi olganidan keyin harbiy xizmatni tugatgunga qadar bo'lgan davr ichida va

jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan yoki sudning ayblov hukmi mavjud bo'lgan hollarda yuqorida aytilgan huquq amal qilmaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishning boshqa asoslari ham bo'lishi mumkin. Bunday asoslar, masalan, chegaralar o'zgarishini nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin¹.

O'zbekiston fuqaroligini olish hamda bunday fuqarolikdan chiqishning mufassal tartib taomili (qanaqa hujjatlar kerak bo'lishi, bu hujjatlar kimga taqdim etilishi va hokazo) mamlakat Prezidentining 1993-yil 23-dekabrda chiqarilgan Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik - shunday qilib, shaxs va davlatning o'zaro mustahkam huquqiy aloqasi bo'lib, shaxsning qadr qimmati, huquq va erkinliklarini tan olish va hurmat qilishga asoslangan shaxs bilan davlat o'rtasidagi o'zaro huquq, majburiyat va javobgarliklar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston fuqarolik institutini huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (21, 22, 23 - moddalar), «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida» gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-noyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizom» hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining bir qancha prinsiplari mavjud. Ular:

1. Har bir shaxsning fuqarolik huquqi shuni anglatadiki, chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'limgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olishlari mumkin.

2. Teng fuqarolik prinsipi shuni anglatadiki, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida turli xil asoslar bo'yicha - fuqarolikni tiklash,

¹ Qarang: O'zbekiston ensiklopediyasi. -T., 1997. 11-bet.

tug‘ilish, fuqarolikni qayd etish kabi holatlarda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan shaxslarning huquqiy maqomida hech bir farq belgilab qo‘yilmagan.

3. Yagona fuqarolik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi davlatchiligining xususiyati bilan bog‘liq. Ushbu prinsip fuqarolar respublikaning butun hududida fuqaro hisoblanishini anglatadi.

4. O‘zbekiston Respublikasining o‘z fuqarolariga o‘z hududida va chet ellarda homiylik qilishi.

5. Fuqaroning o‘z fuqaroligini bekor qilish yoki o‘zgartirish huquqi davlat tomonidan buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

6. Ikki fuqarolikka yo‘l qo‘yilmasligi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi xorijiy davlat fuqarosi bo‘lishi mumkin emas.

7. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligi saqlanib qolishi.

8. O‘zbekiston Respublikasining o‘z hududidan tashqarida yashovchi fuqarolarini himoya qilishi. Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari o‘zlari borgan mamlakat qonunlari bilan, O‘zbekiston Respublikasi va uning fuqarosi borgan davlat qatnashayotgan shartnomalar hamda xalqaro odatlar bilan berib qo‘yilgan hamma huquqlardan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun choralar ko‘rishlari, ularning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini qonunlarda belgilangan tartibda himoya qilishlari, zarur hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko‘rishlari shart.

9. Nikoh tuzilishi va bekor qilinishida O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining saqlanib qolishi. Fuqarolik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasan shaxs bilan nikohdan o‘tishi va uni bekor qilishi o‘z-o‘zidan

fuqarolikning o‘zgarishiga olib kelmaydi. Xuddi shuningdek, er-xotindan birining fuqaroligini o‘zgartirishi ikkinchisining fuqaroligi o‘zgarishiga olib kelmaydi.

10. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi prinsiplari qatoriga O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lмаган, бироқ О‘zbekistondagi yuksak xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladigan faxriy fuqaro deb ataluvchi institut ham kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining yuzaga kelishi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi:

- 1) fuqarolik berilishi natijasida;
- 2) tug‘ilishi bo‘yicha;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi qayta tiklanishi natijasida;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha yuzaga keladi.

Ushbu holatlarga qisqacha to‘xtalamiz.

1. Fuqarolikning tan olinishi yoki berilishi natijasida yuzaga kelishi (Fuqarolik to‘g’risidagi qonunning 4-moddasi) quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘ladilar:

1) kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e’tiqodi, mashg‘ulotining turidan qat’i nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtida O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lмаган hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslar;

2) davlat yo‘llanmasi bilan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o‘tayotgan yoki o‘qiyotgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining hududida tug‘ilgan bo‘lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo‘lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmasalar va ushbu qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir - yil ichida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan bo‘lsalar;

3) ushbu qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

2. Fuqarolikning tug‘ilish bo‘yicha yuzaga kelishi- «filiatsiya». Jahan amaliyotida fuqarolikning tug‘ilish bo‘yicha yuzaga kelishining ikkita asosiy usuli mavjud: «qondoshlik huquqi» va «tuproqdoshlik huquqi». Birinchi holatda bola, tug‘ilgan joyidan qat‘i nazar, ota-onasining fuqaroligini oladi, ikkinchi holatda esa-bola, ota-onasining fuqaroligidan qat‘i nazar, qaysi davlatda tug‘ilgan bo‘lsa, o‘sha davlat fuqarosi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari har ikkala qoidani ham tan oladi, biroq «qondoshlik huquqi» ga ustunlik berilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan ota-onadan tug‘ilgan bola, qayerda tug`ilganidan qat`i nazar, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi;

2. Bola tug‘ilishi vaqtida ota-onalardan biri O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lsa, ikkinchisining esa fuqaroligi bo‘lmasa, bola tug‘ilgan joyidan qat‘i nazar, O‘zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Bola tug‘ilgan vaqtida ota-onalardan biri O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi, ikkinchisi esa chet el fuqarosi bo‘lsa, bolaning fuqaroligi to‘grisidagi masala, u qayerda tug‘ilganidan qat‘i nazar, ota-onasining yozma kelishuvi bilan hal qilinadi. Bunday kelishuv bo‘lmagan taqdirda, bola O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi, chunki aks holda u fuqaroligi bo‘lmagan deb hisoblanib qolar edi.

«Tuproqdoshlik huquqi» 1) ota-onasi noma’lum bo‘lgan shaxs, 2) ota-onasining fuqaroligi bo‘lmagan va O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan bolalarning fuqaroligini belgilashda qo‘llaniladi.

3. Fuqarolikning qayta tiklanishi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonuning 18 moddasiga muvofiq, ilgari O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan shaxs o‘z iltimosiga binoan ushbu qonun talablariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qayta tiklanishi mumkin.

Bu talablar fuqarolikka qabul qilish uchun belgilangan talablar bilan aynan bir xildir.

Qonunga binoan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z iltimoslariga ko‘ra kelib chiqishi, irqi va millati, jinsi, ma’lumoti, tili, dinga munosabati, siyosiy va boshqa e’tiqodlaridan qat’i nazar - O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilinishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

- 1) chet el fuqaroligidan voz kechish;
- 2) so‘nggi besh - yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik (ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug‘ilgan va hech bo‘lmasa otaonasidan biri, buvasi yoki buvisi O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo‘lmaydi);
- 3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasinitanolishvabajarish.

Ushbu moddaning 1, 2 va 3 bandlarida qayd etib o‘tilgan talablar alohida hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasidagi kata yutuqlari bo‘lgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yohud malakaga ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin (17modda).

4. Fuqarolikning O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarda yuzaga kelishi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida inson huquqlari va fuqarolik masalalariga oid deyarli barcha xalqaro huquqiy xujjalarga qo‘shildi. Bular Gaaga konvensiyasi (1930 yil), Fuqarosizlikni qisqartirish to‘g‘risidagi konvensiya (1961 yil), Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989 yil),

Fuqarolik va siyosiy huquqlari to‘g’risidagi xalqaro pakt (1966 yil), Turmushga chiqayotgan ayollarning huquqlari to‘g’risidagi konvensiya (1957 yil) va boshqa hujjatlardir. Shuningdek, fuqarolik masalalari ba’zan O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalarida ham e’tirof etilishi mumkin. Ba’zan O‘zbekiston bilan qo‘shni (chegaradosh) davlatlar o‘rtasida optatsiya, ya’ni davlat chegarasining o‘zgarishi bilan shaxsning davlatga mansubligini tanlashi masalasi kelibchiqishi mumkin. Bu holda fuqarolik masalalari xalqaro huquqiy shartnoma asosida hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g’risidagi qonunning IX bobi «Xalqaro shartnomalar» deb nomlangan. Undagi qoidaga ko‘ra, basharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ushbu qonunda bayon etilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi (45modda).

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining to‘xtatilishi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga quyidagi hollarda ega bo‘linadi:

- 1)tug‘ilganda;
- 2)O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilinish natijasida;
- 3)O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha;
- 4)qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarda.

Fuqarolikdan chiqish shaxsning o‘z irodasiga ko‘ra fuqarolikning bekor bo‘lishi. Fuqarolikdan chiqish fuqaroning iltimosi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Fuqarolik to‘g’risidagi qonunda fuqarolikdan chiqishga to‘sinqilik qiluvchi quyidagi asoslar belgilab berildi:

fuqaroning O‘zbekiston Respublikasining jismoniy yoki yuridik shaxslari oldida mulkiy javobgarligi yoxud davlat oldida bajarilmagan majburiyatlari mavjudligi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g’risida iltimos qilayotgan fuqaroning jinoyat ishi bo‘yicha ayblanuvchi tariqasida jalb qilinganligi

yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro qilinishi lozim bo‘lgan sud ayblov hukmining mavjudligi.

Fuqarolikka qabul qilish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish shaxsning xohishini inobatga olmasdan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini bekor qilish. Bu individual tarzda hal etiladigan holatdir.

Fuqarolikka qabul qilish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish yolg‘on ma’lumotlar va soxta hujjatlar asosida O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Yolg‘on ma’lumotlar va soxta hujjatlar taqdim qilganlik holati sud tartibida aniqlanadi. Fuqarolikka qabul qilish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish ushbu shaxsni qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni hal qilish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi davlat idoralari quyidagilardir:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- 2) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya;
- 3) O‘zbekiston Respublikasining Ichkiishlar vazirligi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolik masalalari bo‘yicha qarorlar va farmonlar chiqaradi.

Fuqarolik masalalarini dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etadi.

Fuqarolik to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi davlat idoralari tizimida alohida vazifani O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda ularning tarkibiy bo‘linmalari, diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari bajaradi. Ular quyidagi vakolatlarga egadirlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid ariza va

iltimoslarni qabul qilish;

2) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshirish;

3) Fuqarolik masalalariga doir arizani zarur hujjatlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiyaga yo‘llash;

4) Shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash;

5) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish va bekor qilish holatlarini qayd etish;

6) Fuqarolik masalalari bo‘yicha qarorlarni ijro etish.

Fuqarolik to‘g‘risidagi ishlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Manfaatdor shaxs Ichki ishlar vazirligi yoki Tashqi Ishlar vazirligining idoralari, diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalariga ariza beradi. Ushbu mutasaddi idoralar arizani qabul qiladilar hamda ko‘rib chiqadilar. Arizani ko‘rib chiqish muddati bir yildan oshmasligi kerak. Tegishli idoralarning qarorlari xulosa bilan rasmiylashtiriladi, ushbu xulosa yuzasidan bir oy muddatda sud tartibida shikoyat keltirilishi mumkin.

Iltimosnama O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nomiga yo‘llanadi. Iltimosnomani ko‘rib chiqish natijasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan rasmiylashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi olingan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

2 BOB. TASHQI SIYOSAT - DAVLAT SUVERENITETINING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

2.1. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning subyekti

Har qanday mustaqil davlatning tashqi siyosati, va umuman, xalqaro munosabatlar huquqiy prinsiplarning o`ziga xos mezoni hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, «Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e’tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalgam oshirilmoqda. Shu bois iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng ko‘lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta’minlab beradi»¹.

Asosiy qonun - Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari belgilangan. Xususan, «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobida tashqi siyosatning asosiy prinsiplari mustahkamlangan. Bu prinsiplarga binoan, O‘zbekiston tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minalash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdustliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin»².

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston 120 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi, 35 ta davlat elchixonasi ochildi. 19 ta davlat elchilar O‘zbekiston Respublikasida o‘rindoshlik asosida faoliyat yurgiza boshladi. Xozirgi kunda Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditasiyadan o‘tgan, 24 ta

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston: XXI asr busag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 6. –T., «O‘zbekiston», 1998. 227-bet.

² Ollamov YA. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini urganish jarayognida yoshlар dunyoqarashining shakllanishi. Urganch, «Xorazm», 2004. 18-bet.

hukumatlararo va 13 ta hukumatlarga tegishli bo‘limgan tashkilotlar faoliyat olib boradi¹.

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari quyidagilardan iborat:

a) mustaqil va suveren davlat hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi zimmasiga uning roziligesiz xalqaro huquq prinsiplari va normalari bilan bog’liq boshqa majburiyatlar yuklatilmasligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyatining cheklanmasligi va hech bir xalqaro huquq sub’ektining bunga aralashishga haqli emasligi, o‘zining hududidan tashqarida esa, o‘z hokimiyatini faqat manfaatdor davlatlar roziliği bilan amalga oshira olishi;

v) O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning boshqa sub’ektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomaalar tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashishi.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g’risida»gi qonunda mustahkamlab qo‘yilgan².

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining eng muhim vazifasi BMT, EXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol qatnashish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga qo‘shilishdir.

1992-yil 2-martda O‘zbekiston BMT a’zoligiga qabul qilindi. O‘zbekiston BMTning deyarli barcha ixtisoslashgan muassasalari ishida faol ishtirok etmoqda. Bular quyidagilardir: BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO), BMTning Osiyo va Tinch okeani bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Butunjahon sog’lijni saqlash tashkiloti (BSST), Butunjahon pochta ittifoqi (BPI), BMTning Taraqqiyot dasturi (BMT TD), BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YUNEP),

¹ Qarañg: Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini urganish. -T., «O‘zbekiston», 2001. 126-bet.

² «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari tug’risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997. № 2. 35-modda.

Bolalarga yordam ko'rsatish fondi (YUNISEF), BMTning sanoat rivojlanishi bo'yicha dasturi (YUNIDO), BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD), BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO), BMTning aholi punktlari bo'yicha markazi (XABITAT), BMTning xalq hokimiyatchiligi sohasidagi faoliyat fondi (YUNFPA), fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO), butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi BMT tizimidagi faol davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatimizning faol xalqaro siyosat yuritayotganligi birinchi Prezident I.A. Karimovning ushbu tashkilot minbarida so'zlagan nutqlarida aks etgan. Masalan, 1993-yil 28-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov birinchi marta BMT Bosh Assambleyasining minbarida turib, o'z nutqida quyidagi xalqaro - huquqiy tashabbuslarni ilgari surdi:

- Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari yuzasidan BMT seminarini chiqirish;
 - BMT Xavfsizlik Kengashi qoshida yuzaga keladigan xalqaro nozolarni tahlil va bashorat qiluvchi maxsus guruh tuzish;
 - Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zona deb e'lon qilish;
 - Markaziy Osiyo hududida kimyoviy va bakteriologik quollar joylashuvini xalqaro nazorat qilish;
 - Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi kurash olib borish uchun BMT ning mintaqaviy komissiyasini tuzish;
 - BMTning Orol dengizi bo'yicha maxsus komissiyasini tashkil etish;
- Xavfsizlik qengashi tizimini qayta qurish va unda hozirgi dunyoning ijtimoiy, iqtisodliy, milliy-madaniy, xilma-xilligini to'g'ri tasavvur etish qobiliyatini shakllantirish¹.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-ses-siyasida suzlagan nutqi . - Nyu-York, 1993 yil 28 sentyabr // Xalq suzi. 1993 yil 29 sentyabr.

1994-yilga kelib Toshkentdagi vakolatxona - BMTning Rivojlanish dasturi (BMTRD), BMT Qochoqlar išlari bo'yicha oliy komissarining boshqarmasi (KIOKB), BMT bolalar fondi, Sanoatni rivojlantirish (YUNIDO), Narkotiklarni nazorat qilish (YUNDKP) dasturlari, Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, BMTning Xalqaro aholishunoslik fondi kabilarni birlashtiradi.

O'zbekiston BMTning tinchlik o'rnatuvchi kuchlari hududiy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, hududlardagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etmoqda. SHu munosabat bilan O'zbekiston tashqi siyosat prinsiplardan kelib chiqib, BMTning zahiradagi bitimlar tizimiga qo'shilishga qaror qildi. Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari prezidentlari 1996 - yil 15 dekabrda BMTning Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash bo'yicha zahiradagi kuchlari sifatida tinchlik o'rnatuvchi batalon (Sentrazbat)ni tuzish to'g'risidagi bitimni imzoladilar¹.

O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlari ham tobora rivojlanmoqda.

O'zbekiston suverendavlat sifatida chet el mamlakatlari bilan bevosita diplomatik, konsullik darajasida munosabatlar o'rnatish huquqiga ega.

O'zbekiston suveren davlat sifatida belgilangan xalqaro normalarga binoan mustaqil xalqaro harakatlar qilish uchun yuridik qobiliyatga, xalqaro huquq va majburiyatlarni mustaqil amalga oshirishga ega bu xalqaro huquqqa ega bo'lgan sub'ektning asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Xalqaro huquq sub'ekti tushunchasini belgilashda xalqaro aloqalar ishtirokchilari davlat ichki munosabatlari ishtirokchilaridan farqli ravishda biron bir shaxs yurisdiksiyasiинг qaramog'ida ham, undan ustuvor siyosiy hokimiyatga tobe ham bo'lmaydi, ular birbirlariga nisbatan mustaqil holatda bo'ladilar.

Mustaqillik - bu mazkur davlat hokimiyatining ham ichki, shuningdek bu davlat hududidan tashqarisida har qanday hokimiyatdan mustaqil bo'lishidir. Mustaqillik - bu, birinchidan, davlatning o'z hududida ustuvorlik qilishi,

¹ Qurang: Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Xozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). -T., 2002. 212-213 betlar.

ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda uning mustaqilligidir. O‘z hududida ustuvorlik qilishi davlat qo‘lida barcha hokimiyatning jamlanishi va o‘z hududiylar doirasidagi tashkilot va shaxslarga nisbatan davlat ichki qonunqoidalari tomonidan belgilangan tizimi asosida hukmni o‘tkazish, davlat hokimiyatining birligi hamda cheksizligida namoyon bo‘ladi.

Mustaqillik to‘g‘risidagi tushunchada- davlatning bironbir tashqi hokimiyatga tobe bo‘lmasligi, bo‘ysunmasligi tushuniladi. Davlat o‘zi mustaqil ravishda, boshqa hokimiyat va davlatlardan qat’i nazar o‘zining ichki va tashki vazifalarini amalga oshiradi, ichki va tashki siyosatini belgilaydi.

Suverenitetni huquqiy belgilari ana shulardan iborat. Qolaversa, Federatsiyada bir davlat ikkinchisiga bo‘ysundirilayotgani yo‘k, balki bir yagona hududda hokimiyatlik qilish huquqini taqsimlash jarayoni, qaysiki har bir hokimiyat (ittifoq va respublika) sub’ekt o‘z hududida mustaqil ravishda ish olib boradi, deb ishontirmoqchi bo‘lishmoqda. Sobiq Ittifoqning tarixiy tajribasidan ma’lumki, bu da’volar asossizdir. Zero, davlat ichida davlat va mustaqillik ichida mustaqillik bo‘lishi mumkin emas, bu huquq jihatdan mutlaqo nomutanosibdir.

Boshqa mustaqil davlatlar qatori O‘zbekistonhamdavatlarning xalqaro uyushmasiga teng huquqlilik asosida a’zo bo‘ldi. Jahonning 160 mamlakati uning mustaqilligini tan oldi. 100 ga yaqin xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Toshkentda Turkiya, AQSH, Hindiston, Fransiya, Germaniya, Xitoy va boshqa davatlarning elchixonalari ochildi. Tarixda ilk bor O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi, u, shuningdek, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro mehnat tashkiloti va yana qator boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi.

O‘zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli a’zosi sifatidadunyo hamdo‘stligi davlatlariga qo‘silishi uning davlatlararo tuzumda muhim muammolarni hal etishda ishtirok etishda qo‘silganligidan dalolat beradiki, uning asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan

davlatlar, xalqlar va millatlar, davlatlararo xalqaro tashkilotlar, xalqaro anjumanlar, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'limgan davlatlarni birlashtirish, turli xalqaro organlar, shu tuzumda faoliyat olib boruvchi xalqaro huquq va boshqa ijtimoiy qoidalar, shu uyushmalar bilan aloqa va o'zaro munosabatlar. Mana shunday murakkab davlatlararo tizimda o'z o'rnini qanday belgilab olish kerak, o'zga xalqaro huquq sub'ekti bilan munosabat o'rnatishda qanday xattiharakatlarga rioya qilish lozim, xorijiy mamlakatlar bilan o'z munosabatlarini qaysi yo'nalishda rivojlantirish kerak, degan haqli savol tug'iladi.

Fikrimizcha, davlatlararo munosabatlar tizimida munosib o'rinni egallayman degan har qanday davlat oldida yagona to'g'ri yo'l bor bu xalqaro huquq hamda normalarga sidqidildan va so'zsiz amal qilishdir.

Xalqaro hamkorlikning umum e'tirof etilgan prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- a) davlatlarning teng huquqligi prinsipi;
- b) o'zgalar ishiga aralashmaslik;
- v) teng huquqlilik, millat va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi;
- g) davlatlararo hamkorlik prinsipi;
- d) inson huquqini hurmat qilish prinsipi;
- e) xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarilishi prinsipi va boshqalar.

Bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan mazkur prinsiplar asosida xalqaro aloqalar va hamkorlik qilganda davlatlar mustaqilligi hamda teng huquqligini hurmat qilishi, millat va xalqlarning siyosiy haq-huquqlari va rivojlanish shakllarini ixtiyoriy ravishda tanlashlari, davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy hamda siyosiy tazyiq o'tkazishga yo'l qo'ymaslik, davlatlar bir birlari bilan tinchlik o'rnatish va xalqlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida aloqa qilish mas'uliyati, inson huquqini hurmat qilish, turli belgilar bahonasida kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, uning huquqi va erkinligini himoya qilish hamda barcha xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish majburiyati.

Fikrimizcha, O‘zbekistan Respublikasi o‘z mustaqilligini e’lon qilganda yuqorida aytib o‘tilgan xalqaro huquq prinsiplarini tan olgan va uning barcha shartlarini bajarish dasturi amalga oshirilmoqda. Masalan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik to‘g‘risidagi deklaratsiya bayonida, O‘zbekiston xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi, deb ta’kidlangan. 1991-yil 31-avgustda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengashning Bayonotida esa tashqi siyosat borasida aniq vazifalar belgilangan, shu jumladan, tinchlikni ta’minalash, qurolsizlanish, o‘z hududini qurolli kuch va harbiy sanoatdan ozod qilish, yadroviy va ommaviy qirg‘in qurollarini tugatish, mustaqil davlatlar o‘rtasida vujudga kelgan nizolarni hal etishda kuch va tazyiq o‘tkazmaslik, birinchi galda kuch ishlatishga yo‘l qo‘ymaslik, insoniyat oldida turgan murakkab muammolarni hal etishda davlatlar bilan hamkorlik qilish va xalqlarning birdamligini qo’llabquvvatlash. Ushbu hujjatda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalarining umum e’tirof etgan prinsiplarini hurmat qilishi alohida ta’kidlanadi.

O‘zbekiston tashqi siyosat faoliyatida xalqaro huquq normalarining ustuvorligiga amal qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov bir necha bor ta’kidlab, shunday degan edi: «O‘zining milliy huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O‘zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o‘z qiyofasini yo‘qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir».

Ushbu hujjatlarda xalqaro huquqning ustuvorligi to‘g‘risidagi holat uzining huquqiy qarorini topdi va O‘zbekiston Konstitutsiyasida muhrlandi, ya’ni O‘zbekiston o‘z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni tashqi aloqalarda ham, o‘z hududida ham og‘ishmay amalga oshirishga kafolat beradi.

Har qanday davlatning tashqi siyosiy faoliyati va maqsadlari, bu sohadagi yutuqlari uning tashqi siyosat olib boruvchi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu masalalarni tayerlash va huquqiy hal etish, ularga huquqiy kuch berish

konstitutsiyaviy va amaldagi qonunchilik, shuningdek xalqaro huquq normalari tomonidan belgilangan qoidalar va tartiblarga rioya kilgan holda amalga oshiriladi. Respublika tashqi aloqalarning konstitutsionhuquqiy mexanizmini yaratmasdan turib tashqi siyosat dasturini ishlab chiqsa olmaydi va amalga oshira olmaydi, chunki uning mazmuni ko‘p jihatdan ma’lum huquqiy davlat shaklida o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari Respublikaning yangi Konstitutsiyasidan o‘rin olgan, maxsus «Tashqi siyosat» bo‘limida esa respublikaning bu sohadagi faoliyat yo‘nalishi, mazmuni, asosiy maqsadi va vazifalari bayon etilgan. Konstitutsianing boshqa bo‘limlarida esa davlat idoralari va hukumat boshlig‘ining tashqi siyosiy vakolati belgilangan, endi maxsus qonun yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, davlatlararo huquqiy yordam ko‘rsatish (ekstraditsiya qilish), ijro etish va bekor qilish tartibini belgilovchi holatlarni ko‘rsatib berish kerak, deb hisoblaymiz.

Respublikaning xalqaro maydondagi faoliyatining faollanishini chet el davlatlarining rasmiy vakillari bilan bevosita muloqotlar orqali diplomatik aloqalar o‘rnatalishi, xalqaro shartnama va bitimlar, diplomatik yozishmalar, xalqaro tashkilotlar ishtirok etish, rasmiy tashqi siyosiy axborotnomalar, xalqaro akt va hujjatlarni e’lon qilish shakllarida namoyon bo‘ladi.

Tashqi aloqalar tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan Respublikaning diplomatik faoliyati turli yo‘nalishlarda olib borilmoqda.

Xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarning umum e’tirof etilgan qoida va normalari asosida olib boriladi:

- a) siyosiy munosabat;
- b) iqtisodiy aloqalar;
- v) ilmiytexnikaviy aloqalar;
- g) madaniy aloqalar;

d) turizm, sport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalar. Agar biz respublikamizning xorijiy davlatlar bilan barcha aloqalar majmuini tahlil etadigan bo‘lsak, unda xalqaro huquq sub’ektining barcha belgilari mavjudligini ko‘ramiz.

Agar avvallari respublikaning tashqi siyosiy faoliyati xorijiy davlat boshliqlari hamda hukumat boshliqlari, parlament delegatsiyalarini qabul qilish va oddiy suhbat tarzida o‘tib, O‘zbekistonning chet el mamlakatlari bilan hamkorligining biron-bir muhim masalalarini hal etmagan bo‘lsa, endilikda ahvol butunlay o‘zgardi.

Respublikaning davlat mustaqilligi mustahkamalana borgan sari uning chet el mamlakatlari bilan aloqalari yanada kengaydi, respublikaning manfaati va talabini qondirish maqsadida faoliyat yurgizuvchi mustaqil tashqi siyosat tizimi shakllandi, chet el davlat vakillari bilan bevosita aloqalar rivojlanmoqda, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarni rivojlantirish borasida xalqaro shartnomaviy faoliyat olib borilmoqda, respublikaning mustaqil tashqi aloqalari boshqaruvi tizimi tuzilmoqda.

Xalqaro shartnomalar tuzilishi muhim xalqaro huquq sub’ekti hisoblanadiki, bu hujjatlarsiz xorijiy davlatlar bilan turli sohalarda to‘laqonli va uzoq muddatli hamkorlik qilish mumkin emas. Agar oldinlari xalqaro shartnomalar tuzish huquqidan BMT a’zolari bo‘lgan Ukraina va Belorussiya Respublikalari foydalangan bo‘lsa, endilikda sobiq ittifoqdosh respublika barcha mustaqil davlatlar ham xalqaro shartnomaga va bitim tuzish imkoniga ega bo‘ldilar.

Respublika davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin o‘z dunyo qarashi e’tiqodiga, urf-odati va an’analalariga yaqin bo‘lgan musulmon Osiyo madaniyati mamlakatlari bilan bevosita aloqalar o‘rnatish imkoniga ega bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligi bilan savdo-iqtisodiy shartnomalar tuzildiki, bular Respublikamizning teng huquqli sherikchilik va o‘zaro xurmat prinsipi asosida xo‘jaliklararo aloqalar tizimiga kirish imkonini berdi.

O‘zbekiston tashqi aloqalarining rivojlanishiga 1991-yil avgustida O‘zbekiston Respublikasi davlat boshlig‘ining Hindistonga qilgan safarida

imzolangan xalqaro bitimlar katta ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Prezidentining rasmiy tashrifi va uning Hindiston Prezidenti, Bosh vaziri, tashqi ishlarvaziri va mamlakatning boshqa rahbarlari bilan uchrashuvi natijalarida ikkita xalqaro hujjat: «O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy, savdo va ilmiy texnikaviy hamkorlik; madaniyat, san’at, maorif, fan, turizm, sport va ommaviy ahborot sohalarida hamkorlik qilish» to‘g‘risida bitim imzolandi.

I.A.Karimovning Hindistonga rasmiy tashrifi natijalari O‘zbekiston azal-azaldan savdo aloqalari qilib kelgan mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishiga keng imkoniyatlar olib berishi mumkin ekanligidan dalolat berdi, shu asosda Turkiya, Pokiston, Eron va Yaqin hamda O‘rta SHarq davlatlari bilan ham shartnomalar tuzildi.

Yaqin Sharq mamlakatlari bilan turli sohalarda aloqalar o‘rnatalishi va rivojlanishi bilan bir qatorda, sobiq itgifoqdosh, endilikda mustaqil respublikamiz siyosatining yana bir muhim yo‘nalishini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi , Ukraina , Belorussiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston va Turkmaniston bilan tuzgan shartnoma va bitimlarini tahlil qilish ularning xalqaro ahamiyatga molik ekanligidan dalolat beradi.

Respublikalararo barcha shartnomalar: o‘zaro e’tirof etish va davlat mustaqilligini hurmat qilish, teng huquqlilik va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizoli masalalarni tinch yo‘l bilan hal etish, shuningdek xalqarohuquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalariga rioya etilgan holda amalgaoshiriladi.

Shunday qilib, Respublika Prezidenti, Bosh vaziri, Respublika Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari yoki vazirlar imzolagan xalqaro shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining davlat irodasini ifodalaydi va uning ijrosiga mas’ul shaxsni belgilaydi.

Respublikaning diplomatik va konsullik vakolatxonalar bilan ayrboshlash huquqi uning xalqaro huquq sub’ektining uchinchi muhim belgilaridan hisoblanadi. Yaxshi ma’lumki, O‘zbekistonda AQSH, Xitoy, Afg‘oniston,

Hindiston, Mo‘g‘uliston, Liviya, Turkiya va boshqa davlatlarning elchixonalari ishlab turibdi. Ular ushbu davlatlar bilan respublikamiz o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida tashkil etilgan.

Hozir respublikamizda tashqi aloqalar boshqaruvining xorijiy idoralarini shakllantirish yuzasidan dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda, chet ellarda elchixonalar, savdo vakolatxonalarini tuzish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Respublika tashqi aloqalarining xorijiy idoralarini tuzishda eng avvalo diplomatik xizmatning xalqaro tajribalarini o‘rganish, bu sohadagi sobiq SSSRning salbiy tajribalarini hisobga olish, vakolatxonalarini regionlararo tashkil etish imkonidan foydalanish, diplomatiya idoralarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash vazifasi turibdi.

Respublikaning xalqaro faoliyatlaridan yana biri uning xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etishidir. Shuni eslatib o‘tish joizki, yaqin yaqinlargacha sobiq respublikalar ichida faqat Ukraina va Belorussiya Nyu-Yorkda joylashgan BMTda, Parijda manzilgohi bo‘lgan YUNESKOda, Jenevadagi BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlarida o‘z vakolatxonalariga ega edi. O‘zbekiston Respublikasi garchand BMT ga a’zo bo‘lmasa ham, uning vakillari sobiq SSSR delegatsiyasi a’zosi sifatida BMT sessiyalarida tashqi siyosiy va iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘z ma’ruzalari bilan qatnashgan, respublikada esa BMT tashabbusi yoki uning ishtirokida son-sanoqsiz konferensiylar, simpoziumlar, turli anjumanlar o‘tkazilar edi.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasi talaygina ham siyosiy, ham iqtisodiy, moliyaviy va boshqa davlatlar hamjihatligi xalqaro tashkilotining to‘la huquqli a’zosidir. Respublika xavfsizlik va hamkorlikka bag‘ishlangan Kengashning Yakunlovchi aktini imzolab, Xelsinki jarayoniga qo‘sildi, qo‘silmaslik davlatlari tashkilotiga a’zo bo‘ldi va shu munosabat bilan xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi.

Hozir respublika tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyatini tubdan o‘zgartirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mahsus davlat boshqarovi

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi, tashqi ishlar vazirligining vazifalari kengaytirilib, uning tarkibida tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘limi ochildi, shu sohani boshqarish bilan bog‘liq bir qator qonunlar chiqarildi, respublika Prezidentining Farmoniga ko‘ra 1994-yilning 1-yanvariga qadar respublikaga chetdan keltiriladigan barcha turdagি tovarlar davlat soliqlaridan, shuningdek, o‘ta noyob tovarlar bojxona soliqlaridan ozod qilindi.

O‘zbekistonda diplomatik ishlar uchun xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy aloqalarda faoliyat yurgizadigan mutahassislar tayyorlashga katga e’tibor berilmoqda. Shu maqsadda Toshkent Davlat Universitetida, Toshkent Iqtisod Universitetida maxsus fakultet va kurslar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida maxsus institut tashkil etildi, shuningdek chet ellardagi yetakchi o‘quv va ilmiy markazlarda, chet el firma, bank va kompaniyalarida talabalarni o‘qitish va malakasini oshirish yo‘lgaqo‘yildi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston o‘z mustaqilligining birinchi yilidayoq tashqi aloqalar boshqaruvining huquqiy asoslarini yaratdi. Yangi Konstitusiyada respublika tarixida birinchi marotaba tashqi iqtisodiy faoliyat, chet el investitsiyalari, xorijiy davlatlarga O‘zbekiston vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi, respublika diplomatiya xodimlariga diplomatiya unvon va darajalarini belgilash to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi.

Respublika Oliy qonun chiqaruvchi organiga ko‘rib chiqish uchun valyutani boshqarish, xalqaro shartomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish tartibi to‘g‘risida va boshqa masalalarga oid qonun loyihasi taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalarini atroflicha tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, ularning mazmuni suverenitet va mustaqillik e’lon qilingandan keyingi huquqiy maqom bilan bog‘liq. U respublika faoliyatining xalqaro munosabatlaridagi asosiy prinsiplar va yo‘nalishlarni o‘zida jamlagan, tashqi aloqalar davlathuquqiy mexanizmini amalga oshirishni belgilaydi.

Konstitutsiyadan tashqarihar qanday davlat boshlang‘ich faoliyati asosini belgilovchi, muayyan ijtimoiy munosabatlarni boshqarishda katta rol o‘ynovchi

qonunlar bo‘lib, ular kundalik qonunchilik tartibida e’lon qilinib, ijtimoiy va davlat amaliyotining ancha tor masalalarini tartibga soladi. qonunning asosiy belgilari shuki, unda eng muhim ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi, u davlat hokimiyatining oliy organlari yoki umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinishi yoki man etilishi mumkin, u boshqa normativ huquqiy aktlarga nisbatan ustunlikka ega.

O‘zbekiston tashqi aloqalari sohasini mahsus qonunlar singari, davlat va xo‘jalik hayotining ayrim masalalari bo‘yicha umumiyligi qonunlari ham tartibga soladi. Respublikada tashqi aloqalar sohasida mahsus qonunchilikning yuzaga kelishida 1991-yil 14-iyundagi «Tashqi iqtisodiy faoliyat haqidagi qonun» birlamchi bo‘ldi. Ilk bor bu qonun bilan Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat asosiy prinsip va tartiblari belgilandi. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi, sub’ekt va ob’ekti berilgan, tashqi iqtisodiy hamkorlikning davlat yo‘li bilan tartibga solish shakllari va sub’ektlar huquq hamda majburiyatlari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston hududida chet el investitsiyalarini huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy amalga oshirish «Chet el investitsiyalari haqidagi qonun» da belgilangan. Unda chet el investorlari, chet el investitsiya tushunchasi va uning shakllari, huquq va majburiyatlari, chet el investorlari faoliyatining huquqiy rejimi, ular ishtirokida korxonalar tashkil etish tartibi va boshqalar belgilangan.

Respublika Oliy Majlis tomonidan o‘z paytida qabul qilingan barcha qonunlar Respublikaning savdo iqtisodiy, fantexnika aloqalarini ancha chuqurroq va samaraliroq rivoji uchun hizmat qildi, tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlari, shuningdek chet el investorlari qonuniy manfaatlarini ta’minalash kafolatini berdi. Ular Respublika xalq xo‘jaligini rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga to‘la huquqli kirishi maqsadida chet el moliyaviy, moddiy, aqliy va boshqa resurslari, zamonaviy xorijiy texnologiya va boshqarish tajribasini jalgan etishga yo‘naltirilgan.

Respublika tashqi aloqalarini tartibga solish ishida «O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatlaridagi diplomatik vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi hakidagi qonun va «O‘zbekiston Respublikasi diplomatik hodimlari uchun diplomatik klass va ranglarni o‘rnatish haqidagi qonuni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuni ta’kidlash zarurki, tashqi aloqalar savdosida davlat va uning organlari faoliyati nafaqat bu maqsadlardagi mahsus qonunlar qabul qilishi bilan, balki mazkur faoliyatning boshqa tomonlarini tartibga soluvchi qonunchilik aktlari bilan ham tartibga solinadi. Xuddi shunday korxonalarning tashqi iqtisodiy chet el ishbilarmonlarining huquq va majburiyatlari, tashqi aloqaning boshqakonkret muammolariga oid ko‘plab masalalar O‘zbekiston Respublikasining korxonalar, birlashma, tashkilotlardan soliqlar olish, bank faoliyati, ishbilarmonlik, xususiylashtirish va qonunchilik aktlarida o‘z echimini topgan.

Bundan tashqari, davlat mulkidan foydalanish bilan bog‘liq tashqi siyosiy faoliyatning asosiy boshlanishi, xorijiy huquqiy shaxs, fuqarolar hamda ularga tegishli mulkning huquqiy qoidalari asosi, xorijiy davlatlar fuqaro qonunlarining qo‘llanishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligi bilan boshqarib turiladi.

Respublika tashqi aloqa munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normativ aktlar ichida qonundan so‘ng Prezident ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident farmondan tashqari, butun respublika hududiga tegishli, ma’lum kuchga ega qaror va farmoyish chiqaradi. Tashqi aloqa borasida ular respublika xalqaro faoliyatiga bevosita tegishli barcha davlat organlarining o‘zaro aloqalarini ta’milashga, rahbar xodimlarni tanlash va joy joyiga qo‘yishga, respublika tashqi siyosatining bosh yo‘nalishini belgilashga qaratilgandir.

Respublika tashqi aloqalari nafaqat qonuniy aktlari, ya’ni respublika hukumatining normativ aktlari orqali boshqarib turiladi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori mavjud qonunlar va Prezident Farmonlari asosida hamda ijrosida chiqariladi. Ularni amalda qo'llashni tashkil etish, tashkilotlar, rahbar shaxslar va fuqarolar aniq bajarish maqsadida qonunlarning ko'pgina qoidalari aniqlashtiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 14-iyundagi Xorijiy investitsiya haqidagi hujjatgamuvofiq 1991-yil 12-noyabrda «O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar, jumladan qo'shma korxonalar, xalqaro birlashma va tashkilotlar hamda ularning tuzilma bulimlarini faoliyatini tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi haqida» qaror chiqarilgan.

Xalqaro aloqalarni amalga oshirish tartibini, ushbu huquqiy munosabatlar sub'ektining huquq va majburiyatlarini belgilovchi mahalliy Kengash qarorlari normativ aktlar sanaladi. Ular mahalliy Kengash sessiyalarida qabul qilinadi va ular amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi kerak. Mahaliy Kengashning ijro va boshqaruvchi organlari hududni rivojlantirish masalalarini zudlik bilan hal etish bilan bog'liq qaror va buyruq chiqaradi.

Aytiganlarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, barcha davlat organlarining huquq ijodkorlik faoliyati orqasidan jamoat tashkilotlarining ushbu faoliyatda ishtiroki kengayadi. Ular, davlat organlari bilan birga davlat normativ aktlarini ishlab chiqishga qabul qilishda qatnashib qolmasdan, balki ma'lum vaziyatlarda shaxsiy normativ qarorlarni ham qabul qiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Savdosanoat palatasi jamoat tashkiloti bo'la turib ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoriga chiqishiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu maqsadda u ko'rgazma va yarmarkalar uyushtiradi, tovar sifatini ekspert ko'riganidan o'tkazadi, chet el adabiyotlarini tarjima qiladi, tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish va patentlash masalalari bilan shug'ullanadi. U o'z vakolatlari doirasida o'z tashqi vazifalarini amalga oshirish tartibini belgilovchi normativ aktlar chiqarish, o'z a'zolarining huquq va majburiyatlarini belgilash, Savdosanoat palatasi tashkil etgan tadbirlarda korxonalar ishtiroki tartibini belgilash huquqiga ega.

Hozirgi davrda davlatlarning soni 200 ga yaqinlashdi: ular hududining hajmi, aholi soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi, jamiyatning siyosiy xarakteri bo'yicha farq qiladi. Biroq dunyo hamjamiyati asosida barcha davlatlarning mustaqil tenglik tamoyili yotadi. Dunyo hamjamiyati xalqarohuquqiy ma'noda tashkilot emas, "dunyo xamjamiyati" tushunchasi yuridik tushuncha emas. Dunyo hamjamiyatini vakilligini bajaruvchi universal tashkilot bu 1945 yilda tashkil topgan Birlashgan Millatlar Tashkilotidir, uning tarkibida ko'pchilikni tashkil qiladigan davlatlardir.

O'zbekistan Respublikasi davlat mustaqillagini e'lon qilib, dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi bo'ldi. O'zbekiston Asosiy qonunining muqaddimasida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlari ustuvor deb tan olingan, bu bilan Konstitutsiyada mustaqil O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatining birligi mustahkamlanadi.

Tashqi siyosatga bag'ishlangan maxsus bob Konstitutsiyaga kiritish zaruriyati demokratik konstitutsiyaviy davlatning faoliyatida ichki va tashqi omillarning o'zaro aloqadorligi bilan belgilanadi. Konstitutsianing 17-moddasida O'zbekistonning tashqi siyosati xalqaro huquq me'yorlari va umum e'tirof etilgan tamoyillardan kelib chiqqan holda qoidalar mustahkamlangan.

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari bu zamonaviy xalqaro huquqni asosiy mazmunini ta'riflaydigan va uning maqsadlarini amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim universal majburiy me'yorlardir. Ular BMT ning Ustavida qisqa usulda mustahkamlangan. BMT tomonidan 1970-yilda qabul qilingan xalqaro huquqning tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyasida bu tamoyillar kengroq aniqlangan. Deklaratsiya bunday yetti tamoyildan tashkil topgan:

kuch ishlatmaslik va kuch bilan qo'rqiitmaslik;
xalqaro majoralarni tinch hal qilish;
davlatlarning ichki vakolatlariga kiradigan ishlarga aralashmaslik;

BMT ustaviga muvofiq davlatlarning birbiri bilan hamkorlik qilish majburiyati;

xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va teng huquqliligi;

davlatlarning mustaqil tengligi;

ustavga muvofiq ular tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni davlatlar tomonidan vijdonan bajarilishi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Xelsinkidagi Kengashning yakuniy hujjatida bularga yana uchta tamoyil qo‘sildi:

chegaralarning buzilmasligi;

davlatlarning hududiy butunligi;

inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish. Demak barcha tamoyillar soni o‘ntani tashkil qildi¹.

Dunyo hamjammiyati oldida turgan katta muammoni hal qilish zarurligini aks ettiruvchi yangi tamoyil paydo bo‘lmoqda, bu ham bo‘lsa atrofmuhitni muhofaza qilish majburiyatidir. Bu tamoyillar u yoki bu darajada ko‘pchilik zamonaviy davlatlarning konstitutsiyalari bilan ularning huquq tizimlariga kiritilgan, ularga qonun chiqarish hamda ijro va sud hokimiyatlarining faoliyati mos kelishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu an'anaga ehtiyyotlik bilan yondashilgan, uning oxirgi nashrida xalqaro huquqning me’yorlari va umum e’tirof etilgan tamoyillari davlatning tashqi siyosiy faoliyati bilan bog‘langan.

Mustaqil O‘zbekistonning tashqi siyosati asosida xalqaro huquqning me’yorlari va umum e’tirof etilgan tamoyillari yotishini belgiladi. Bundan tashqari, eng yangi dunyo konstitutsiyaviy amaliyotiga muvofiq u xalqaro huquqning ichki davlat huquqidan ustunlik mohiyatidan kelib chiqadi. Bu konstitutsiyaviy tamoyillar o‘zining keyingi rivojini “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining tamoyillari to‘g‘risi” dagi qonunida o‘z aksini topdi.

¹Ba’zi bir adabiyotlarda, ayniqsa, Oliy ta’lim ukuv yurtlari darsliklarda 11 yoki 17 ta tamoyil kursatiladi.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zosi hisoblanadi, xalqaro tashkilotlarning faoliyatida faol qatnashadi. O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beruvchi tinchliksevar tashqi siyosatini olib boradi. Bizning davlatimizning tashqi siyosatining asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yul bilavn hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umum e’tirof etilganboshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin” deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi tashqi siyosat tamoyillarini qonuniy tartibda mustahkamlab, butun tashqi siyosat mexanizmi asoslarini belgiladi. Bu mexanizm davlat va jamoat muassasalaridan tashkiliy asosidan tashkil bo‘lgan O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tizimi doirasida harakat qiladi.

O‘zbekistonn davlat mustaqilligini dunyoning barcha nufuzli davlatlari tan oldilar, ularning 130 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiytexnik va madaniy munosabatlaro‘rnatilgan, Toshkentda 50 ta elchixona, vakillik, konsullik ochilgan. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tarixida birinchi marta 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga xalqaro huquqning to‘la huquqli sub’ekti sifatida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Yevropada hamkorlik va havfsizlik bo‘yicha Kengashning yakuniy hujjatini imzolab, Xelsinki harakatiga qo‘sildi. O‘zbekiston qo‘silmaslik harakatiga qabul qilindi, parlamentlararo ittifoqqa kirdi.

Bugun O‘zbekiston qator etakchi xalqaro iqtisodiy moliyaviy birlashmalarning iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga, Qora dengiz mamlakatlarining iqtisodiy assotsiatsiyasiga, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasiga, qayta qurish va rivojlanish Xalqaro Bankiga, Xalqaro Valyuta Fondiga, Xalqaro mehnat tashkilotiga, Butun dunyo sog‘liqni saqlash tashkilotiga, qayta qurish va rivojlanish Evropa bankiga va boshqalarga a’zo bo‘ldi.

Bizning tashqi siyosatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri mustaqil davlatlar hamdo‘stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan to‘g‘ri va har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekiston hamdo‘stlik g‘oyasini ma’qulladi, 1991-yil 21-dekabrda uning ta’sischilari tarkibiga kirdi va barcha qatnashchilarining teng huquqlik asosida uni mustahkamlash va rivojlantirish uchun qattik, turibdi. Rossiya va boshqa hamdo‘stlik mamlakatlari bilan o‘zaro foydali hamkorlik kengaymoqda va mustahkamlanmokda.

O‘zbekistonning tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyoning yosh mustaqil davlatlari Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Тоҷикистон, Turkmaniston bilan do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash hisoblanadi. Bu besh davlat umumiy tarix, an’ana, dinga ega. Huddi shu umumiylig yangi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar qurilishi bu mamlakatlarning gullabyashnashining garoviga asos bo‘lib hizmat qiladi.

Bunga O‘zbekistonning siyosiy tanglikning fojiali kunlarida Tojikistonga siyosiy va iqtisodiy yordam, bu respublikalarning birbiri bilan bog‘laydigan va O‘rta Yer dengiziga, Hind okeani va Tinch okeaniga chiqishga imkon beradigan Transosiyo magistral temir yo‘lning hamkorlikda qurilishi to‘g‘risidagi shartlashuv, Orol dengizini qutqarish, Orol oldida ekologik halokatni oqibatlarini tugatish bo‘yicha hamkorlikda tadbirlarni amalga oshirish bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

1994 - yil yanvar oyida O‘zbekiston Qozog‘iston, Qirg‘iziston prezidentlari tomonidan tovarlarning hizmatlarning ishchi kuchlarining erkin xarakatlanishini ko‘zda tutgan hamda kreditlar, hisob-kitoblar, byudjetlar, soliqlar, baholar va valyuta siyosati bo‘yicha o‘zaro shartlashuvni ta’minlovchi yagona iqtisodiy hudud to‘g‘risida bitim imzolandi. Bunday bitimning tuzilishi davlatlarni o‘zaro munosabatlarini yangi, yanada yuqori darajaga ko‘tardi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatining boshqa muhim yo‘nalishlaridan biri Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari, arab davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarni chuqurlashtirishga intilish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Turkiyada, Eronda, Pokistonda, Hindistonda, Saudiya Arabistonda, Misrda bo‘lib, davlatlararo munosabatlar to‘g‘risida shartnomalar tuzdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Osiyo-Tinch okeani regioniga qilgan rasmiy davlat tashriflari Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziyalar bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatalishi bilan yaqunlandi. Bunday hamkorlikning yorqin ifodasi sifatida masalan, Asakada Janubiy Koreyaning mashhur DEU korporatsiyasi tomonidan qurilgan va 1996-yilda yengil avtomobillar chiqara boshlagan avtomobil zavodi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Avstriyaga, AQSHga, SHveysariyaga, Finlyandiyaga, Germaniyaga, Fransiyaga, Buyuk Britaniyaga, Gollandiyaga borishi o‘zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, do‘stona munosabatlarni o‘rnatishga yo‘l ochib berdi. Masalan, Germanyaning mashhur "MersedesBens" firmasi Xorazmda yuk mashinalari ishlab chiqarish bo‘yicha avtomobil zavodini qurilishini olib bormoqda.

O‘zbekistonning tashqi siyosatining jug‘rofiysi uzluksiz kengaymoqda. O‘zbek diplomatiyasi o‘zining faoliyatida eng yuqori insoniylik tamoyillariga, o‘zaro foydali hamkorlikka suyanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining tashriflari vaqtida siyosatdonlardan tashqari etakchi iqtisodchilar va biznesmenlar bilan doimo uchrashadi, chunki birinchi

navbatda ilg‘or mamlakatlarning tajribalarini o‘rganishimiz, ularning yangi texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy qilmoq, bizning mamlakatimizga chet el investitsiyalarini kirishiga keng yo‘l ohib berishimiz kerak. Bunday siyosatning natijasi O‘zbekistonda qo‘shma korxonalarning tashkil qilinishi bo‘ldi. Bugunga kelib ularning soni 4500 dan oshib ketdi, ular 70 mamlakatning vakillari bilan hamkorlikda tashkil qilingan va dunyo bozorida raqobatlasha oladigan tovar va mahsulotlar ishlab chiqariladi. Dunyoning nufuzli 70 banklari Bilan hamkorlik rivojlanmoqda. Ulardan biri O‘zbekistonda o‘rta va kichik biznesni rivojlantirish hamda "NyumontZarafshon" oltin qazib oluvchi qo‘shma korxonani moliyaviy ta’minlash uchun 160 million AQSH dollari ajratgan qayta qurish va rivojlantirish Evropa bankidir. Fransiyaning "Kredikomersal de Frans" banki bilan Buxoro viloyatidagi Qorovul bozorida yiliги 5 million tonna neftni qayta ishlaydigan neftni, qayta ishslash zavodining qurilishini mablag‘ bilan ta’minlash to‘g‘risida bitim tuzdi.

Respublikada mustaqillik yillarda iqtisodni ko‘tarish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston suveren davlat sifatida milliy va ijtimoiy o‘sish yo‘lida mustahkam turib oldi, dunyo hamjamiyatida hurmat va obro‘ga erishdi.

2.2 O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorligi.

Xalqaro munosabatlarninghozirgi rivojalanish bosqichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, (BMT) ning tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nuqtalarida ushbu nufuzli tashkilotning faoliyati to‘g‘risida «BMT barcha davlatlarning, mintaqalarning, butun jahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va echish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir», deb ta’kidlagan edilar¹.

¹O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O‘zbekiston, 2003. - B. 5.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida "O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir" deb ko‘rsatib qo‘yilganligi, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin", degan qoidaning belgilanishi yosh davlatimizni dunyodagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga to‘la huquqli a’zo bo‘lib kirishi uchun imkon tug‘dirdi.

O‘zbekiston BMTga 1992-yilning 2-martida teng huquqli a’zo bo‘lib kirdi. Buning natijasida respublikamiz xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirish, xalqaro huquq tartibotni ta’minlash kabi hayotiy ahamiyatga molik yo‘nalishlar bo‘yicha BMT bilan teran hamkorlik qilish bilan ushbu sohalarda xalqaro huquqiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishishda, BMT bilan xalqaro huquq normalariga asoslangan holda, turli tashkiliyhuquqiy shakllarda o‘zaro hamkorlik qilish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanish va jamiyat hayotini modernizatsiya qilishga qaratilgai islohotlarning mazmunmohiyatiga to‘la javob beradi.

qayd qilish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining BMT bilan hamkorligining salohiyatidan to‘liq foydalanilayotgani yo‘q. Uyushgan jinoyatchilik va terrorizm, ekologik muammolarga barham berish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, O‘zbekiston Respublikasining BMT rahbar va ishchi organlaridagi ishtirokini faollashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

BMTning XXI asrda xalqaro tashkilot sifatidagi huquqiy maqomi, BMT vakolatxonalarining faoliyati, aynan O‘zbekiston bilan hamkorligining huquqiy jihatlari bitiruv malakaviy ishchi olimlar tomonidan yetarlicha yoritilmagan;

Hozirgi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonda BMT to‘g‘risida yetarli axborot bo‘lsa ham, ammo davlatlar bilan hamkorligining huquqiy jihatlariga va faoliyatiga e’tibor kam qaratilgan, vaholanki, uni to‘liq o‘rganish tashkilotning to‘la xususiyatlarini ochib beradi;¹

BMT xalqaro hujjatlarining huquqiy tabiatni milliy qonunchilik bilan qiyoslangan holda yetarli darajada o‘rganilmagan, ushbu hujjatlarni o‘rganish, davlatlar uchun xalqaro huquqiy me’yorlarni milliy qonunchilik tizimida ham to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi;

O‘zbekiston va BMT munosabatlari, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, o‘zaro munosabatlarning yangi sifat darajalariga ko‘tarildi va mamlakat demokratik tamoyillarga asoslangan tashkilot doirasida faol ishtirok eta boshladi;

O‘zbekiston qonunchiligi rivojlanayotgan hozirgi vaqtida, BMTning boy huquqiy bazasidan foydalanish davr taqozosi hisoblanadi va bu sohadagi muammolarni echishda uning ahamiyati kattadir;

O‘zbekistonning BMT rahbar organlarida ishtiroki misolida, boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ham ishtirokini rivojlantirishlozim.

Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, uning xalqaro huquq va xalqaro munosabatlardagi roli, mazkur tashkilotdagи o‘zgarishlar va yangiliklar, umum e’tirof etilgan prinsiplari asosida hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda BMT va uning organlarining yangicha yo‘nalishda, faoliyat olib borish mexanizmi va uslublar hozirgi zamon yuridik fanining dolzarb masalalaridan biridir. Huquqshunos olimlar va bitiruv malakaviy ishchilar asosan XX asrning so‘ngida va XXI asr boshlarida e’tibor qarata boshladilar. Buning asosiy sababi shu vaqtgacha BMT va uning organlari tizimi xalqaro hamjamiyat talablariga to‘la javob berib kelgan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tashkiloti to‘g‘risida, uning xalqaro huquqda, xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, a’zo davlatlar bilan hamkorligi

¹ Karang. O‘zbekiston Respublikasi: mustakil davlatning bunyod bo‘lishi. O‘zbekiston T. 1992,84b

masalalari xususidagi mavzular R.Myullerson, F.Mayor, G.Tunkin, E.Shibaeva kabi olimlar asarlarida yoritib berilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan F.Bakaeva, I.Bobokulov, A.Mamatkulov, G.Matkarmova, X.Odilqoriyev, A.Saidov, L.Saidova, Y.Umaroxunov, R.Hakimov,¹ kabi olimlar o‘z asarlarida xalqaro tashkilotlarning tuzilishi, organlari, faoliyati va ixtisoslashtirilgan muassasalar hamda ularning vakolatxonalari haqida fikr yuritganlar.

BMT faoliyati masalasi O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin keng yoritila boshlandi. Mazkur Bitiruv malakaviy ish ishi, BMT bilan birgalikda qanday loyihalar ro‘yobga chiqarilganligi va amalga oshirilayotganligiga, kelgusida nimalar rejalashtirilganligiga bag‘ishlanadi.

X.Odilqoriyev, A.Saidov, R.Hakimov asarlarida BMT universal tashkilot sifatidagi faoliyati, uning tuzilishi, organlari tizimi, ixtisoslashtirilgan muassasalarinint huquqiy holatlari, O‘zbekiston Respublikasi va BMT hamkorligi sohalari yoritilgan.

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarida tutgan o‘rni natijalardan iborat ekanligini ko‘rib chiqaylik.

Xalqaro tashkilotning ta’sis etilishi va faoliyati hozirgi davr xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga muvofiq kelishi lozim. Xalqaro huquqiy munosabatlarda xalqaro tashkilot a’zo davlatlar irodasidan farqli o‘laroq, o‘z irodasini ifodalab, faqat o‘z nomidan qatnashishi mumkin. Hozirgi davrda xalqaro tashkilotlar davlatlararo muloqotning asosiy tashkilotchisi hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi zamon halqaro tashkilotlari ikkita asosiy turga: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar hamda xalqaro nohukumat tashkilotlarga bo‘linadi. Ta’kidlash lozimki, ushbu tashkilotlarning har ikkisi ham xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi va davlatlarning o‘zaro muloqotiga ko‘maklashadi. Har qanday xalqaro tashkilotning maqsadi davlatlarning siyosiy, harbiy, iqtisodiy, huquqiy, valyuta

¹U.Tadjixanov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom.T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998; Saidova L.A. Diplomatik huquqva davlatning ichki qonunchilik tizimi. Haetvaqonun, - T., 2000. - №2. - 28-32-6.

moliya va boshqa sohalarni o‘rganishdan iborat. Biroq, BMT kabi tashkilot barcha sohalarda davlatlarning faoliyatini tartibga solishi lozim. Bunda xalqaro tashkilot a’zodavlatlar o‘rtasida vositachi bo‘lib hizmat qiladi. Ba’zida davlatlar xalqaro munosabatlarning eng murakkab masalalarini tashkilotlarga muhokama qilish va hal qilish uchun beradilar.

Fikrimizcha, har qanday xalqaro tashkilotning shakllanishi davlatlar o‘rtasida yuzaga keladigan u yoki bu muammolarni hal qilishning muhimligiga tayanadi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq sub’ekti sifatida o‘ziga xos yuridik xususiyatlarga ega bo‘lib, ushbu xususiyatlardan biri xalqaro tashkilotlarning tartibga solish, nazorat va operativ funksiyalarining mavjudligidadir.

BMT uni tuzgan davlatlarning jamoaviy organi bo‘lganligi sababli, u muayyan huquq va majburiyatlarga ega, shuningdek unga a’zodavlatlar hududida ham, ushbu huquqlardan foydalanishi mumkin ekanligi qayd etilgan. Xalqaro tashkilotlar doirasida davlatlar hamkorligini muvofiqlashtirib borish samaradorligiga xalqaro tashkilotlar funksiyalarini to‘liq ishga solish orqali erishiladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar funksiyalarini tarqoq holda tasavvur etish mumkin emas. Ushbu funksiyalarning uyg‘unligi orqali halqaro tashkilot oldida turgan muhim vazifadavlatlar o‘zaro xarakatlarining yagona maqsadlarga yo‘naltirishni ta’minlashga erishiladi. BMT Nizomidagi¹ «Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘z a’zolaridan har birining hududida o‘z vazifalarini bajarish va o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan huquq layoqatidan foydalanadi». Birlashgan Millatlar Tashkilotining davlatlar bilan xalqaro huquqiy hamkorligi 1945 - yil 25-aprel 26-iyunda San-Fransiskoda bo‘lib o‘tgan konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi ishlab chiqishi va 50 ta davlat vakillari tomonidan imzolanishi bilan tarixga muhrlandi. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda ishtirok etish huquqi, jumladan xalqaro shartnomalar tuzish huquqi xalqaro huquq sub’ektlarini tavsiflovchi belgilaridan

¹БМТНизоми. Т. 2002. 52 б.

biridir. BMT xalqaro huquqning hosila sub'ekti bo'lsada, mazkur asoslarga ko'ra xalqaro huquq sub'ektining bir qancha belgilarini o'zida mujassamlashtirgan.¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquqiy maqomiga to'xtalsak, bu borada fanda asosan uchta doktrina etakchi o'rinni egallaydi: tashkilotchilik yoki yo'naltiruvchilik doktrinasi; konstitutsiyaviy doktrina; integratsiyaviy doktrina.

«Yo'naltiruvchilik» doktrinasining nomidan ham ko'rilib turibdiki, BMT asosan suveren teng bo'lган davlatlarni umumiy manfaatlar yo'lida birlashtirib, ularning mushtarak maqsadlarga yo'naltirish faoliyatini amalga oshirib boradi.²

Konstitutsiyaviy nazariya tarafдорлари Tashkilotga butunjahon hukumati maqomini beradilar.

Ammo, BMT Nizomining 1-modda 4-qismiga nazar tashlasak, uning maqomiga doir turli savollarga javob topish mumkin: «...umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazi bo'lish». Ya'ni, BMT o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib turishi lozim. Boshqacha aytganda, tashkilot suveren davlatlarning o'rnini bosishga intilmaydi va o'zi ham ular qatoriga kirmaydi. Bu ma'no uning a'zolari suveren tengligiprinsipidan ham kelib chiqadi. Shuningdek, Nizomning 2-moddasi 7-qismida: «...Nizom Birlashgan Millatlar Tashkilotiga har qandaydavlatning aslida ichki vakolatiga kiradigan ishlariga aralashish uchunaslo huquq bermaydi...», qoida bayon qilingan bo'lib, bu Tashkilotning «xalqaro hukumat» emasligini yaqqol ko'rsatib beradi. Ushbu barcha holatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquqdagi maqomini davlatlar maqomidan farqlanishini belgilab bergen.

Umuman olganda, BMT zamonaviy xalqaro munosabatlarning barcha yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, universal xalqaro tashkilot sifatidagi o'z o'rnini mustahkam egallab kelmoqda.

¹Курс международного права, Под ред. Чхиквадзе В.М. - М., 1969. - С. 82

²Каримов А, Международные организации - инструмент многостороннего сотрудничества (Теория и практика). Т: УМЭД 2001.-С.14

Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi ishtirokiga kelgan.Unda o‘zaro hamkorlikda mamlakatimizning xalqaro hujjatlarga qo‘silishi va milliy qonunchilik tizimida qo‘llanilishi, BMT organlari va dasturlarida O‘zbekiston Respublikasining ishtiroki masalalari, O‘zbekiston Respublikasining BMT taraqqiyot sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq masalalar o‘rganib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining to‘la huquqli a’zosi sifatidagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqning mustaqil sub’ekti sifatida bir qator suveren huquqlaridan foydalangan. Ushbu huquqlarning eng muhimlaridan biri xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish va uning faoliyatida ishtirok etishdir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, BMT kabi universal tashkilotga a’zo bo‘lishi, xalqaro maydondagi yosh, mustaqil davlatning muhim qadami bo‘lganligini e’tirof etish lozim bo‘ladi.

Har bir davlat tashqi siyosatni tinchlik yo‘lida davlatlararo hamkorlik qilish orqali va xalqaro tashkilotlar bilando‘stlik va hamkorlik aloqalarini o‘rnatadi va rivojlantiradi. SHu bois, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan tarixiy kundan hozirgi davrgacha O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olib, undan diplomatik aloqa haqida rozilik bildirgan. O‘zbekiston Respublikasi AQSH, Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, FRG, Isroil, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar bilan diplomatik va konsullik aloqalarni olib bormoqda. 1993 - yil yanvar oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. BMTning O‘zbekistondagi birinchi doimiy vakili Pokistonlik Halid Bashir Malikdir. BMTning Toshkentdagи vakolatxonasining o‘ziga xosligi, ushbu tashkilot doirasida barcha jamg‘arma, dasturlar va bo‘limlar (YUNESKO, YUNISEF, YUNISTAR, BMTTD, JSST va boshqalar)ning faoliyat ko‘rsatishidadir. 1994-yilga kelib Toshkentdagи vakolatxona BMTning Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), BMTning qochoqlar ishlari bo‘yicha Oliy komissarining Boshqarmasi (IOKB), BMT Bolalar fondi (YUNISEF), Sanoatni rivojlantirish dasturi (YUNIDO) va Narkotiklarni nazorat qilish (YUNDKP) dasturlari, Butun

jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), BMTning Xalqaro aholishunoslik fondi kabilarni birlashtirdi.

BMTning tinchlik o‘rnatuvchi kuchlari hududiy nizolarni tinch yo‘l bilan tartibga solishda, hududlardagi tinchlik va barqarorliknita’minlashda faol ishtirok etmoqdalar. Shu munosabat bilan O‘zbekiston, tashqi siyosat tamoyillaridan kelib chiqib, BMTning zaxiradagi bitimlari tizimiga qo‘shilishga qaror qildi.

Xalqaro tashkilotlarning muhim belgilaridan biri bo‘lgan, ularning organlari o‘rganilgan. Ushbu paragrafda BMT organlarining faoliyati, vakolatlari va ularda a’zo davlatlarning ishtiroki masalalari o‘rganish orqali Tashkilot doirasida O‘zbekiston Respublikasining vakillari, mutaxassislari faoliyatini ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

BMT turli saylov organlariga O‘zbekistonning saylanishi Respublika mavqeining mustahkamlash va xalqaro muhokamalarda mutassil qatnashish hamda turli masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqini beradi. BMTning asosiy saylov organlarining rejasida O‘zbekistonning Xavfshlik Kengashi hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash ishida qatnashishi mumkin hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, BMTning bu organlarida faol ishtirok etishida, O‘zbekiston tomonidan Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy-Ijtimoiy Kengashi ko‘rib chiqadigan masalalarni aniqlash muhim hisoblanadi. Butun dunyoda barcha iqtisodiysiyoziy voqeа va jarayonlarga daxldor bo‘lgan Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy-Ijtimoiy Kengash ishining jadalligini hisobga olgan holda, O‘zbekistonni BMTning bu organlaridagi samarali ishtirokini ta’minlash maqsadida vakolatxonaning moliyaviy jihatdan va kadrlar bilan ta’milanishi muhimdir.

Fikrimizcha, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish lozim. Uning doimiy a’zolari tarkibi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar hisobidan ham kengaytirilishi lozim. Xavfsizlik Kengashining ham doimiy, ham muvaqqat a’zolari sonini oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan taraqqiyot yo‘lida turli boshqarmalar, dasturlar, jamg‘arma va maxsus muassasalar yaqindan hamkorlik qiladilar. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining BMTni rahbar va ishchi organlaridagi ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi.¹

Nazarimizda, BMTning eng muhim yutuqlaridan biri xalqaro huquq va xavfsizlik bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda ahamiyat kasb etuvchi konvensiyalar, shartnomalar va standartlarning xalqaro huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat ekanligidadir. BMT tomonidan ishlab chiqilgan ko‘pgina shartnomalar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy asoslarni shakllantiradi. Xususan, O‘zbekiston tomonidan 1994-yil "Bolalar huquqlari to‘g‘risida" va "Ayollarga qarshi barcha diskriminatsiya turlaridan voz kechish to‘g‘risida" gi konvensiyalarning ratifikatsiya qilinishi, BMTning ihtisoslashgan bolalar fondi tashkilotining rasman faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

BMT va O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot sohasidagi faoliyati e’tiborga loyiqdir. O‘zbekistonda o‘z faoliyatini olib borayotgan BMTning Taraqqiyot Dasturi rejalashtirilgan 74 ta dasturdan 50 tasini amalga oshirdi. Bulardan "O‘zbekiston fuqarolarining huquqiy ongini oshirish maqsadida" 21-fevral 2006-yilda, 2005 - yil dekabrda "O‘zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatini yaxshilash", 2005 - yil 1-mayda "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining tashqi aloqalardagi tutgan o‘rnini qo‘llab quvvatlash maqsadida" hamkorlikda imzolangan shartnomalar O‘zbekistonni yanada rivojlanib, jahondagi ilg‘or mamlakatlar qatoriga qo‘shilishiga yordam beradi.

BMT va O‘zbekiston Respublikasining hamkorligi yildanyilga rivojlanib, uning jahonda tutgan mavqeい yanada oshib bormoqda. Bizningcha, O‘zbekistonning endigi vazifasi BMTning barcha dasturlarida yanada faolroq ishtirok etish hisoblanadi.

¹Muminov, A. O‘zbekistonva YUNESKOning xalkaro-hukukiymunosabatlari. T.: Yangi asr avlod, 2003 -B.28.

O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi vakolatxonalarning huquqiy maqomi, O‘zbekiston va BMT hamkorligining huquqiy holati bilan bog‘liq jihatlar o‘rganilgan va ikki tomonlama aloqalarni yanada takomillashtirish uchun takliflar berilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi doimiy vakolatxonalarning huquqiy maqomi haqida berar ekan. BMT va O‘zbekiston hamkorligining huquqiy va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zaro hamkorlikda mamlakatimizning xalqaro hujjatlarga qo‘silishi, implementatsiya masalalari, BMT va O‘zbekiston hamkorligidagi doimiy vakolatxonalarning huquqiy masalalari o‘rganilgan va bu sohadagi tegishli xulosalarga kelingan va takliflar qilingan.

BMT va O‘zbekiston hamkorligini yanada kuchaytirish maqsadida 1994 - yil 18-yanvarda respublika hukumatining 11-sonli qaroriga binoan BMT qoshida O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasi o‘z faoliyatini boshladi. Mazkur vakolatxona tarkibiga 5 ta xodim kirgan, ulardan 3 tasi diplomatikxodim va 2 tasi ma’muriytexnik xodimlar edi. O‘zbekistan Respublikasini Favqulodda va Muxtor elchi namoyish etardi, keyinchalik vakolatxonada maslahatchi hamda birinchi qotib faoliyat yurita boshladi. 1996-yilda ularning tarkibiga yana birinchi qotib va ikkinchi qotiblar kiritildi. Diplomatik xodimlarning amaliy ko‘rsatmalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi takliflariga binoan ishlab chiqiladi va majburiyatlar esa BMTning organlari bo‘yicha taqsimlanadi.¹

BMT dunyodagi eng ko‘zga ko‘ringan xalqaro tashkilot bo‘lib, uning 130 ta organ va tashkiloti mavjud. Bunchalik keng miqyosdagi hamkorlikni amalga oshirish uchun O‘zbekiston vakolatxonasidan tezkor faollik talab etiladi. Bizning fikrimizcha, vakolatxonadagi xodimlar sonini ko‘paytirish lozim, masalan, BMTdagi Kuba vakolatxonasi diplomatik tarkibi 40 kishidan ziyoddir,¹ BMT bilan inson huquqlarini himoyalash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, tinchlik va

¹Сайдова Л.А. Правовые основы дипломатической деятельности Республики Узбекистан. - Т., 2001. - С. 123

¹Хакимов Р. Узбекистан и ООН, - Т.; изд-во Г. Гуляма, 2002. - С.31.

xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hal qilish yuzasidan hamkorlik qilish manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, vakolatxonada etarli miqdorda diplomatlarni ishslashga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

BMT bilan hamkorlik bu O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda rivojlanishi uchun asosiy omildir. Xususan, BMTning Taraqqiyot Dasturi yordami bilan 1992-yilda O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasi qoshida Xalqaro iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha Departament tashkil etilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonning BMTdagi vakolatxonasi (qarorgohi NyuYorkda) BMT boshchiligidagi qabul qilingan xalqaro konvensiyalar qotibiyatlari bilan o'zaro ish olib boradi. Obhavo o'zgarishi to'g'risida Konvensiya, qurg'oqchilikka qarshi kurashish to'g'risida Konvensiya, biologik rangbaranglik to'g'risida Konvensiya, Vena Konvensiyasi va ozon qatlamini emirayotgan moddalar to'g'risida Montreal protokoli, biologik qurollar to'g'risida Konvensiyalarning qotibiyatlari ular jumlasiga kiradi.

Vakolatxona BMTning Xalqaro Jinoyat sudi bilan birgalikda faoliyat yuritadi va uni kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Xalqaro tashkilotlar qoshidagi O'zbekiston vakolatxonalarining faoliyati tahlilidan kelib chiqqan holda, quyidagi ahamiyatli tomonlarga e'tibor qaratishimiz lozim:

O'zbekiston o'z diplomatik tajribalaridan kelib chiqqan holda, xalqaro tashkilotlarga nisbatan ko'p akkreditatsiya va tayinlash huquqididan foydalanadi (Vena Konvensiyasi, 8modda, 1band: davlatvakolatxonalarining xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama xarakterga ega aloqalar to'g'risida).

Unga ko'ra, "yuborayotgan davlat bir shaxsni 2 yoki bir necha xalqaro tashkilotga vakolatxona boshlig'i etib akkreditatsiya qilishi yoki vakolatxona boshlig'ini boshqa vakolatxona diplomatik personali a'zosi etib tayinlashi mumkin".¹ Bu diplomatik tajribada o'z isbotini topgan va juda yaxshi natija bergen. Lekin O'zbekiston manfaatlar doirasi keng va undan har tomonlama

¹ Венская Конвенция о дипломатических сношениях. Международное публичное право. Сборник документов. - Т 1. - М.: БЕК, 1996. П 1. Ст. 8.

hamkorlik talab etiladigan xalqaro tashkilotlarda O‘zbekistonning doimiy mahsus vakolatxonalarini tashkil etish zarurdir.

O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligining huquqiy holati va istiqbollari degan masalani yoritar ekanmiz. Ushbu paragraf O‘zbekiston Respublikasining BMT xalqaro hujjatlariga qo‘shilishi masalasiga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekiston qo‘shilgan BMTning xalqaro hujjatlarining milliy qonunchilikka implementatsiyasi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Bizningcha, BMT O‘zbekistonning barcha hayot jabhalarini qamrab oluvchi qonun loyihalarini tayyorlashida, qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritishda hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishda ko‘maklashmoqda, xususan 2007 - yil 2choragida «Aholining ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida», «Bolaning huquq kafolatlari to‘g‘risida» gi qonun, 3choragida «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz voqeа hamda kasbiy kasalliklarda davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida» gi qonun, 4choragidagi esa «Tibbiy sug‘urta to‘g‘risida» gi konun loyihalari ishlab chiqarildi va muhokama uchun qonunchilik organiga taqdim qilindi. Bundantashqari O‘zbekiston Respublikasi ba’zi qonunlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish borasidagi takliflar ham muhimdir. 2007 - yil 3choragida «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun, 4choragida «Reklama to‘g‘risidagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish borasidagi masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonning mustaqilikka erishishi, uning uchun nafaqat xalqaro tashkilotlarga teng huquqli ravishda a’zo bo‘lib kirishga va ular bilan hamkorlik olib borishga keng imkoniyatlar ochib berdi, balki shu bilan birga, O‘zbekiston vakillarining xalqaro tashkilotlar doirasida, ularning mo‘‘tabar minbarlaridan turib, ushbu tashkilotlar doirasida xalqaro hamjamiyat oldida turgan muammolar va vazifalarni echishda barcha davlat vakillari bilan teng ravishda ishtirok etish uchun ham shartsharoitlar yaratib berdi.

Ushbu imkoniyatlardan to‘la ravishda foydalanish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Zero O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlikni ustivor tomoni asosi samarali va foydali muloqot hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlari ko‘maklashadi.

2.3 Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi a’zolarining huquqiy maqomi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi- MDH va Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi-MOHnint tashkil etilishi bilan davlat hokimiyatinint vakillik va boshqarish organlari faoliyatini konkretlashtirish, ularni birlashtirish va muvofiqlashtirish vazifalarini, orttirish va takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiynazariy va amaliy muammo va aspektlar vujudga keladi.¹

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi 1991 - yil 8 dekabrda Minsk shahrida tashkil topdi. Uning vujudga kelishi haqidagi hujjatbitimga uch respublika RSFSR, Ukraina va Belorussiya rahbarlari imzo chekdilar. Markaziy Osiyo hamdo‘stligi esa 1993 - yil boshlarida tashkil etilib, bunda ham qator hujjatlar imzolandi.

MDH tashkilotchilari bo‘lgan uch davlat rahbarlari xalqlarning munosabatlari, ular o‘rtasida vujudga kelgan aloqalarga asoslanib, huquqiy demokratik davlat ko‘rishga harakat etgan holda ana shunga intildilar.

Tomonlar BMT Ustavi, Xelsinki yakunlovchi akti va Evropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashining boshqa hujjatlari maqsad va prinsiplariga tarafdar ekanliklarini tasdiqladilar, inson va xalqlar huquqi to‘g‘risidagi xalqaro normalarga rioya qilish bo‘yicha majburiyat oldilar, o‘z fuqarolarining qaysi millatga mansub ekanliklaridan qat’i nazar teng huquqliligi va erkinliklarini kafolatladilar, kam sonli millatlarning madaniy, til va diniy mustaqilligini saqlash va rivojlantirishga imkon yaratish bo‘yicha majburiyatlar oldilar.

Xalqlar va davlatlarning teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorligini rivojlantirish maqsadida siyosat, mudofaa, iqtisodiyot, madaniyat, maorif, sog‘liqni saqlash, fan, savdo, atrofmuhitni muhofaza qilish va boshqa sohalarda mahsus bitimlar tuzishga qaror qilindi.

¹Qarang.O‘zbekistonRespublikasi: mustakildavlatningbunyodbUlishi, O‘zbekiston. T. 1992,88-93b.

Bitimni imzolagan davlatlarning hududiy butunligini tan olish, hurmat qilish hamda amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi va fuqarolarning harakati bo‘yicha erkinligi e’tirof etildi.

Hamdo‘stlik a’zolari xalqaro tinchlik va xavfsizligini ta’minlash, harbiy xarajat va qurollarni qisqartirish choratadbirlarini amalga oshirishda hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Hozirgacha yuzdan ortiq normativ va tavsifiy hujjatlar qabul qilindi. Ular xalqaro nazorat ostida yadro qurollarini yo‘q qilish va to‘liq quolsizlanishga harakat qiladilar. SHu bilan birga tomonlar birbirlarining yadrosiz zona va betaraf davlat statusiga erishish uchun olib boradigan harakatlarini hurmatlaydilar.

Boshlang‘ich hujjatlar bo‘yicha umumiylar harbiystrategik sohasida birlashgan qo‘mondonlikni va yadro quroli ustidan nazoratni saqlashga qaror qilindi.

Tomonlar MDH a’zolarining birgalikdagi faoliyati sohasiga:

- tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish, umumevropa va EvroOsiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohot o‘tkazish;
- bojxona siyosati;
- transportvaaloqa, shuningdek energetikatiziminirivojlantirish;
- salomatlik, atrofmuhitvaekologiyaxavfsizlikginisaqlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash singari muhim sohalarni kirtdilar.

Minsk shahri Hamdo‘stlikning Muvofiqlashtiruvchi organlarining rasmiy joyi deb tanlandi.

Hamdo‘stlikning asosiy maqsadi:

- a) siyosat, mudofaa, iqtisodiyot, ekologiya va boshqa sohalar bo‘yicha har tomonlama hamkorlik qilishni amalga oshirish;
- b) hamdo‘stlikka a’zo bo‘lgan davlatlarni har tomonlama va muvozanatlashtirilgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni ularning iqtisodiy

siyosatini muvofiqlashtirish va umumiyligi iqtisodiy olamini vujudga keltirish, shuningdek, davlatlararo kooperatsiya va integratsiyani rivojlantirish yo‘li bilan ta’minlash;

v) Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda Hamdo‘stlikka a’zo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, qurollanish va harbiy xarajatlarni qisqartirish uchun samarali choralarni amalga oshirish;

g) a’zo davlatlar fuqarolarining bir davlatdan ikkinchi davlatga erkin harakatini va MDH doirasida axborot almashishni kafolatlash;

d) davlatlar o‘rtasidagi va davlatlar ichidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish va MDH doirasida tinch yaratuvchilik mexanizmlarini vujudga keltirish bo‘yicha kuchlarni muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Bu maqsadlarga erishish uchun MDH o‘z munosabatlarini:

Davlat suverenitetini o‘zaro tan olish va hurmat qilish;

Teng huquqlilik va bir birovlarining ichki ishlariga aralashmaslik;

Iqtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo‘llashdan voz kechish;

Baholi muammolarni kelishtiruv vositalari va xalqaro huquqning boshqa hamma e’tirof qilgan prinsip va normalar asosida hal qilishdan iborat prinsiplarga muvofiq qo‘rishlari kerak.

Uch Respublika Hukumat boshliqlarining «Iqtisodiyot siyosatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida» gi ikkinchi bayonotiga muvofiq tomonlar zarur hollarda va yaqin vaqt ichida respublikalararo iqtisodiy bitimni amalga oshirishga kelishganliklari hisobga olindi.

1991 - yil 10 dekabrda uchala respublikada mustaqil davlatlar hamdo‘stligi haqidagi Bitim bir ovozdan ratifikatsiya qilindi.

Hamdo‘stlik tarafдорлари soni asta-sekin ortib bordi.O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalarasi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini quvvatladilar.

1991 - yil 16 dekabrda Qozog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi ham ana shunday hujjat qabul qildi.Bir kunkeyin, 1991 - yil 17 dekabrda Oliy Kengash Farmoniga ko‘ra «Qozog‘iston Respublikasining demokratik yangilanish kuni»

e'lon qilindi. Ana shu Farmonga muvofiq o'z vaqtida javobgarlikka tortilgan dekabr voqealari qatnashchilar (besh yil ilgari ommaviy namoyish militsiya va harbiy qo'shin tomonidan tarqatilgan edi) oqlandilar.

1991 - yil 21 dekabrda sobiq SSR Ittifoqning, uch slavyan va O'rta Osiyodagi besh respublikasi rahbarlari Olmaotada uchrashdilar. Sakkiz respublikaga Armaniston va Moldova, shuningdek Ozarbayjon ham qo'shildi. Bu va sobiq Ittifoqning boshqa a'zolari Hamdo'stlik Hujjatiga imzo chekdilar. Keyin mazkur hujjatlarning parlamentlarida muhokama etilishi, shundan keyingina sobiq SSR Ittifoqining to'la bardam topishi va MDHning tashkil topishi to'g'risida asos paydo bo'lgan edi.

Olmaotada davlatlar va hukumatlar boshliqlari Kengashi, shuningdek mustaqil davlatlar boshliqlari kiramidan mudofaa Kengashi tuzildi. Davlatlarning ishchi va vakolat organlari tashkil topdi.

1991 - yil 21 dekabrda bir ovozdan quyidagi tarixiy hujjatlar qabul qilindi.

MDH deklaratsiyasini sobiq Ittifoqning 11 respublikasi imzoladi;

Mustaqil davlatlar boshliqlari Kengashining Birlashgan qo'mondonlik ostidagi umumiylar harbiy strategik maqomini saqlab qolish va yadro qurollarini nazorat qilish to'g'risidagi protokol;

Mustaqil davlatlar boshliqlari Kengashining Rossiyaning sobiq Ittifoq o'rnida BMTga a'zoligi to'g'risidagi qarori;

MDHning muvofiqlashtiruvchi muassasalari to'g'risidagi Bitimi;

Yadro quroli sohasida birgalikda ko'riladigan chora tadbirlar to'g'risidagi Bitimi;

MDH ni tuzish to'g'risida 1991 - yil 8 dekabr kuni Minsk shahrida Belorus Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina tomonidan imzolangan bitimga doir Protokol.

SHunday qilib Ittifoq barham topdi, Olmaotada 11 mustaqil davlatning ham do'stligi vujudga kelgan edi.

Olmaota Deklaratsiyasiga asosan hamda xalqaro strategic barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy strategic kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlanib qoladi; tomonlar bir-birlarining yadrosiz va (yoki) betaraf davlat maqomiga erishish muddaosini hurmat qiladilar.

Boshqa hujjat MDHga a'zo bo'lgan faqat to'rt davlat boshliqlari imzo chekkan "Yadro qurolli sohasida birgalikda ko'riladigan chora-tadbirlar to'g'risida Bitim" dir. Bu davlatlar "qatnashuvchi davlatlar" sifatida nomlanadilar.

Hamdo'stlik davlatlarining umumiy manfaatlар sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun Hamdo'stlikning oliv organi "Davlat boshliqlari kengashi", shuningdek, "Hukumat boshliqlari kengashi" tuzildi.

MDH davlat boshliqlari kengashining MDH qatnashchilari bo'lgan davlatlarning BMT ga teng huquqli a'zo bo'lishi to'g'risidagi qarorida har bir davlatning BMT Ustavi yuzasidan majburiyatlarni bajarish va shu tashkilot ishida to'la huquqiy a'zolari sifatida qatnashish niyatiga asoslanib, Belorus Respublikasi bilan Ukraina BMT ning dastlabki a'zolari ekanliklarini e'tiborga olib, Belorus Respublikasi bilan Ukraina BMT da suveren mustaqil davlatlar sifatida qatnashib kelayotganliklaridan mammuniyat izhor etib, o'z xalqlarining va butun xalqaro jamiyatning manfaatlari yo'lida BMT Ustavi asosida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashga azmu-qaror berildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat boshliqlari kengashi, birinchidan Rossianing BMT dagi va boshqa tashkilotlardagi to'la huquqli a'zoligi masalalarini hal etishda ko'maklashadilar, deb qaror qabul qildi.

Keyinroq 1991 - yil 30 dekabr kuni Minsk shahrida barcha davlatlarning boshliqlari to'qqizta asosiy hujjatni imzoladilar. Bular quyidagilardan iborat:

1. MDH Davlat boshliqlari kengashi va Hukumati boshliqlari kengashi to'g'risidagi muvaqqat bitim.
2. MDH davlatlari o'rtasidagi strategik kuchlar bo'yicha bitim.

3. MDH davlatlari boshliqlari kengashining qurolli Kuchlar va chegara qo'shnulari to'g'risidagi bitimi.

4. Kosmik fazoni tadqiq qilish va undan foydalanish bo'yicha birgalikda faoliyat ko'rsatish to'g'risidagi bitim.

5. MDH davlatlari boshliqlarining sobiq SSSRning chet ellardagi mulki to'g'risidagi bitimi.

6. Mustaqil davlatlar boshliqlari kengashmajlisining Orol muammosi, shuningdek, Spitakdagi zilzila oqibatlarini tugatish muammosi bo'yicha mahsus bitimni tayyorlashga oid qaror.

7. Davlat boshliqlarining Kaspiy dengizi baliq resurslarini saqlab qolish bo'yicha mahsus bitimni tayyorlash to'g'risidagi kengashmajlisi qarori.

8. Davlat boshliqlari kengash majlisining 1992 yilda bajarilishi zarur bo'lgan Chernobil falokati oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlari, ularni mablag' bilan ta'minlash tartibi va hajmiga oid qarori.

9. MDH davlat va hukumat boshliqlari kengashlari majlisining Hamdo'stlik davlatlari boshliqlari kengashi va hukumat boshliqlari Kengashi majlislarini tashkiliytexnikaviy tayyorgarligi va o'tkazilishi uchun ishchi guruhlarining nomi, tizimi va mablag'i manbalarini ishlab chiqishga oid qarori.

To'rtinchi va beshinchi uchrashuv 1992 - yil 8 fevralda Minskda, 14 fevralda Moskvada bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvlarda asosiy e'tibor Evropa hamjamiyatiga o'xshash yagona, kuchli markaz saqlanishiga qaratildi. Lekin har bir respublikaning o'z armiyasi tashkil etiladi. Unda yana MDH a'zolari Mudofaa Vazirlari Kengashi tuzish to'g'risidagi masala ham ko'tarildi.

Minskda:

- yagona harbiy byudjetni shakllantirish;
- mudofaa masalalari bo'yicha mustaqil davlatlar vakillari oliy organlari;
- MDH qurolli kuchlarining bosh qo'mondonligi;
- qismlarda MDH doirasida erishilgan bitimlarga zid bo'limgan harbiyuquq aktlarida mavjud salohiyat ta'kidlanadigan armiyaning asosiy

huquqiy faoliyatito‘g‘risidagi qator hujjatlar va bitimlar muhokama etildi.

Bosh qurolli Kuchlarga 1995 yilgacha vaqtli harbiy nizomni amalga kiritish huquqi berildi.

Navbatdagi uchrashuv Kievda bo‘lib o‘tdi. 1992 - yil 20 martda Ukraina poytaxtida MDH davlatlari boshliqlari xalq va uning kayfiyatidan uzilib qolmasliklari uchun hamma sharoit yaratildi.

Ertalabki majlisini Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk ochdi. U bir yo‘la MDH mamlakatlari haddan tashqari og‘ir damlarni boshidan kechirayotganligi-optimizm uchun asos yo‘qligini o‘qtirdi. «Konfrontatsiya o‘rniga qator hududlarda haqiqiy urush boshlanib ketdi, iqtisodiyot tubsizlik yoqasida, ichimizda esa MDH loaqlal bitta yirik harbiy, siyosiy yoki hujalik masalalarini hal etilishiga xalqlarning umidi kundankunga pasayib bormoqda», dedi u. "Agar uchrashuvimiz keskin burilish yasamas ekan, deya so‘zini yaqunladi Kravchuk, u holda MDH niqobdan ortiq bo‘lмаган narsani ko‘rib chiqishi mumkin". U ana shunday kayfiyat bilan va vakillarning kelishuviga ko‘ra, keyingi uchrashuv Toshkentda o‘tishiga umid bog‘langan holdaraislilik hokimligini O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovga berdi.

Kiyevdagagi uchrashuv kun tartibi bir necha tematik blok, hammasi bo‘lib 21 masalani o‘z ichiga oldi:

1 xo`jalik bloki: sobiq SSR Ittifoqi Davlat banki aktivlari, passivlari, mulknini taqsimlash, umumiy mikondan foydalanish to‘g‘risidagi bitimga bag‘ishlandi.

2 blok: harbiy muammolarga tegishlidir.

3 blok: yagona axborot vositasiga tegishli masalalardan iborat. Bunda, shu jumladan Ostankino televideniyasi taqdiri hal bo‘ladi va Boyqo‘ng‘ir bilan bog‘lik masalalar blokidir.

MDH mamlakatlarining tinchlikni saqlash masalalarini muhokama qilish taklif etiladigan blok.

MDH mamlakatlari boshliqlari uchrashuvi doirasida Ukraina va qozog‘iston o‘rtasida davlatlararo bitim imzolandi, ratifikatsiya yorliqlari almashindi, shuningdek Ukraina va Armaniston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘matildi.

Uchrashuvda harbiy qurilma mavzusi ham boshliqlar nazdida iqtisodiyot muammosidan kam bo‘lmagan o‘rinni egalladi, Kunning birinchi yarmida mudofaa masalalari bo‘yicha MDHning sobiq organlari vakilligi, o‘tish davrida Birlashgan qurolli kuchlar statusi to‘g‘risida bir bitimga kelindi, MDH davlat chegaralarini saqlash. MDH doirasida tinchlikni qo‘llabquvvatlash uchun kuzatuvchilar guruhi tuzish to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi.

1992 - yil 23 martda "Izvestiya" muxbiri MDH Birlashgan qurolli Kuchlar bosh qo‘mondoni, aviatsiya marshali Evgeniy SHaposhnikovdan MDH prezidentlarining Kievdagи uchrashuvi bo‘yicha intervyu oldi. «Men,- dedi u,- prezidentlarning Kiev uchrashuvi yakunidan juda mammun bo‘ldim. Biz hal qilolmagan, chunonchi, qurolli kuchlarni mablag‘ bilan ta’minalash, harbiy xizmatga chaqirish, shuningdek, qora dengiz floti singari masalalarni davlatlarning huqumatlari muhokamasiga tavsiya etamiz. Endi shu - yil 7 maydan Rossiyaning o‘z Mudofaa vazirligi mavjud, o‘ylaymanki, barcha bahsli muammolar ana shu darajada tezroq va oson hal etiladi".

Bosh qo‘mondon Prednestrove va Tog‘li qorabog‘dagi vaziyat bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarni ham yuqori baholadi. Lekin ular ta’sirli bo‘lishi, ishlay boshlashi uchun huquqiy, asosi xavfli hududlarda o‘t ochishni to‘xtatish uchun kurashish, shuningdek BMTning tegishli hujjatlarida ta’kidlanganidek g‘anim tomonlarga tushuntirish uchun davlatlar o‘rtasida harbiy qo‘sish tuzish to‘g‘risidagi bitim zarur.

Shunday qilib, MDHga a’zo bo‘lgan davlatlar boshliqlarining Kiev uchrashuvida ular muhokama qilingan o‘n ettiga masala bo‘yicha bir bitimga keldilar. SHunga qaramay, agar har bir narsani o‘z nomi bilan ataydigan bo‘lsak, bu uchrashuv Minsk va Moskvadagi uchrashuvlar singari "Izvestiya" gazetasida qayd etilganidek quvonchdan ko‘ra og‘ir taassurot qoldirdi, chunki hamdo‘stlik

hamon eng muhim muammolarni hal etish mexanizmini topa olmadi. L.Kravchukning fikricha, MDHda muhokama qilingan va qabul qilingan qarorlar amalga oshmayapti. MDH hozircha aniq natija bermayapti. U umumlashtirish bilan chegaralanmoqda, bunga qo'shilish ancha qiyin: keyingi vaqtarda qayta ko'rish deb nomlangan davrda sobiq Ittifoqning prezidenti, sobiq hukumati organlari, endilikda esa MDH tomonidan qabul qilingan hujjatlarning birontasi bajarilmayapti.

1992 - yil 15-16-mayda Toshkentda MDH a'zolari bo'lgan davlatlar rahbarlarining navbatdagi (yettinchi) uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv ishtirokchilari o'n ettita masalani ko'rib chiqdilar. Lekin Ukraina prezidenti L.Kravchukning Toshkentga kelmaganligi tufayli MDH uchun juda muhim ikkita-qora dengiz floti ustidan iqtisodiy islohot va nazorat qilishni muvofiqlashtirishga tegishli masalalar kun tartibidan o'zo'zidan olib qo'yildi*.

Umuman olganda, uchrashuv qatnashchilari sobiq SSR Ittifoqi hududida kimyoviy qurollar ishlatish ustidan va kelgusida yo'q qilish uchun Rossiyaga keltirilgan yadro quollarining xavfsizligini samarali nazorat qilishni amalga oshirgan holda Evropada oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi SHartnomaga bajarilishi bilan borliq shaxsiy armiyani tuzishga kirishgan davlatlarda, shu jumladan Rossiya va Ukrainiani qo'shgan holda, MDH Birlashgan qurolli Kuchlar roliga aloqador masalalarni ko'rib chiqdilar.

Sakkizinch uchrashuv Bishkekda 1992 - yil sentyabr ohirida o'tkazilishi belgilangan edi, lekin u 9-oktyabrga ko'chirildi. Bu vaqtda Moskvada MDH a'zolari bo'lgan davlatlarning Tashqi ishlar vazirlari yig'ilishdi. Kun tartibiga MDH a'zolarining Maslaxatmuvoifiqlashtiruvchi Kengash tuzish to'g'risidagi muhim masala bor edi (taklif qozog'iston tomonidan kiritilgandi). Uchrashuvda olti davlat vakillari to'plandi. Bu taklif Prezidentlar va Bosh Vazirlarning qo'shma majlisida ko'rib chiqishga qaror qilingan edi. qozog'iston Prezidenti N.Nazarboev

*Toshkent uchrashuvida Kirg'iston, Moldova, Tojikiston rahbarlari ishtirok etmadi. Rossiya, Kozog'iston, O'zbekiston, Armaniston va Turkmaniston rahbarlariga katnashdi

bu taklifning tashabbuskori bo‘lgandi. U bunda Kengashning savdoiqtisodiy hamkorlikni tashkil etish, byudjet, soliq, pulkredit, valyuta va bojxona siyosatini o‘tkazish, shuningdek, kapital va qimmatdor qog‘ozlarning umumiylar bozorinn shakllantirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirishni qo‘shgan holda MDH davlatlarining kelishilgan iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, aniq taklif va tavsiyalarini ishlab chiqish sohasidagi bosh vazifasini nazarda tutgan edi.

Ikkinchi hujjat, u ham qozog‘iston tomonidan taklif etilgan- qonuniy to‘lov vositasi sifatida rubl saqlanib qolgan davlatlarning yagona pul tizimi va kelishilgan pulkredit va valyuta siyosati to‘g‘risidagi bitim edi. Uchinchi hujjat- keyinchalik qayta ishlannb, kelishilgandan so‘ng parlamentlar tomonidan ratifikatsiya qilinadigan MDH Ustavi.

Bosh qo‘mondonlik va harbiy xavfsizlik to‘g‘risidagi harbiy masalalar ham keng doiradagi suhbat mavzusi bo‘ldi. Endi har bir davlat o‘z harbiy siyosatini ishlab chiqishi mumkin.

Ukrainaning asosiy pozitsiyasi hisoblangan MDHning strategik yadroviy kuchlari to‘g‘risidagi masala hal qilinmay qoldi. U MDHning to‘rt «yadroviy» davlatlar prezidentlari doirasida muhokama qilish taklif etilgandi.

SHunday qilib, qozog‘iston takliflari paqeta ko‘rib chiqilgan Bishkekdagidan uchrashuv aslida tor yo‘nalishdagi konfederativ xarakter bo‘yicha yo‘naltirildi.

MDH tarkibi o‘z maqsadimizga, ya’ni chinakam mustaqillikka tezroq erishish mumkin.Buning uchun Hamdo‘stlik o‘zining nomiga to‘lato‘kis mos kelishi kerak. MDH davlatlari va hukumatlari boshliqlarining Toshkentdagidan uchrashuvi Hamdo‘stlikning kelajagi borligini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning MDHdagi ishtirokini, respublika Prezidenti I.A.Karimovning ta’kidlashicha, quyidagi holatlar belgilab beradi:

1. Yangi mustaqil respublikalar ilgari yagona davlatning tarkibiy qismi edi.
- 2.Respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo‘lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllandи va rivojlandi.
3. Barcha mustaqil respublikalarda, xususan O‘zbekistonda ham sobiq

Ittifoq ko‘lamida yaqin qarindoshurug‘chilik aloqalariga ega bo‘lgan ko‘p millatli aholi yashaydi.

4. Yosh mustaqil davlatlar tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabatlardagi xalqaro makomini mustahkamlashi uchun vaqt zarur.

O‘zbekiston Hamdo‘stlik doirasida boshqa mustaqil mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilayotganligi tufayli quyidagilar ta’minlanmoqda:

Birlashgan qurolli Kuchlar orqali milliy mudofaani muvofiqlashtirish, milliy hudud yahlitligini va davlat chegarasini himoya kilish;

Hamdo‘slikdagi boshqa davlatlar kiritgan fantexnika taraqqiyoti yutuqlaridan bahramand bo‘lish;

transport tarmog‘idan foydalanish, dengiz portlariga chiqish, xorijiy mamlakatlarga mollarni tranzit yo‘li bilan etkazib berishda imkoniyatnnng kengligi;

keskin ekologiya muammolarini hal etish choratadbirlarini birgalikda amalga oshirish, tabiiy ofatlar va falokatlarning oqibatlarini tugatishda o‘zaro yordam berish.

O‘zbekiston Hamdo‘stlikdagi sheriklari bilan o‘z munosabatlarini ko‘p tomonlama davlatlararo shartnomalar hamda bitimlar doirasida ham, shuningdek to‘g‘ridanto‘g‘ri ikki tomonlama muloqotlar, o‘zaro manfaatli savdoiqtisodiy, ilmiytexnikaviy va madaniy aloqalarni o‘rnatish asosida ham yo‘lga qo‘yish niyatidadir.

O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi eng muhim masala- MDHga a’zo mustaqil davlatlar bilan teng huquqli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash hamda uning potensialiga tayanishdir.

A’zo davlatlar, shuningdek hamdo‘stlik organlari, shu jumladan davlat rahbarlari Kengashi, Hukumat boshliqlari Kengashi, Iqtisodiy Kengash, Iqtisodiy sud, Mudofaa vazirlari Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi va

hamdo'stlikning boshqa organlarining huquq va vazifalari to'g'risidagi masalalar ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Hamma a'zo davlatlar bir xilda huquq va bir xilda vazifalarga ega. Barcha a'zo davlatlar MDH organlarida teng huquqli a'zo huquqiga egadirlar. Ular MDHning tashqi chegaralarida ularning tegishli organlari faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish yo'li bilan barqaror ahvolni himoya qilish va ta'minlash bo'yicha zarur choralarni amalga oshiradilar.

A'zodavlatlar o'zlarining xalqaro majburiyatlariga muvofiq har qanday harbiy, siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa majburlash, shuningdek terrorgaasoslanganyokiqo'poruvchilikfaoliyatlardato'g'risidanto'g'ri ilvosita yordam ko'rsatigadan va kelishmovchilik atrofidagi keskinlik bosqinidan holis turadilar.

A'zodavlatlar MDH organlari aktlarini bajaradilar, davlat hokimiyati organlari, jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro aloqani rivojlantirishga ko'maklashadilar.

A'zodavlatlar o'z ichki va tashqi siyosatlarini olib borayotganda sherikchilik, birbirovlarning qonuniy manfaatlarini va har qanday a'zo davlatning holati yoki huquqlariga, uning jismoniy yoki yuridik shaxsiga zarar etishini hisobga olish asosida o'zaro harakat qiladilar. A'zodavlatlar hamkorlikning tegishli hujjatlarda mustahkamlangan maqsadlarini amalga oshirishda birbirlarini qullabquvvatlaydilar va ko'maklashadilar.

Davlat boshliqlari Kengashi va hukumat boshliqlari Kengashi MDHdagi eng yuqori organlar hisoblanadi.

Davlat boshliqlari Kengashida Hamkorlikka a'zo barcha davlatlar boshliqlari darajasida vakillar bo'ladi. Unda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi to'g'risidati bitim va mazkur bitimni rivojlantirishdagi boshqa hujjatlarda ko'zda tutilgan umumiy manfaatlar sohasidagi Hamkorlikka a'zo barcha davlatlar faoliyatini muvofiklashtirish bilan borliq prinsipial masalalarni muhokama qiladi.

Davlat boshliqlari Kengashi bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. Kengashning navbatdan tashqari majlisi Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan har qanday davlat tashabbusi bilan chaqiriladi.

Hukumat boshliqlari Kengashida Hamdo'stlikka a'zo barcha davlatlar hukumat boshliqlari darajasidagi vakillar bo'ladi. U Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohasidagi hamkorliklarini muvofiqlashtiradi.

Kengash strategik harbiy kuchlarni joylashtirishi va moddiy, ijtimoiy ta'minlash shartsharoitini ta'minlashga ko'maklashadi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash va pensiya bilan ta'min etish masalalari bo'yicha kelishilgan siyosat o'tkazishni ta'minlaydi.

Davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari Kengashlarining MDH a'zolari hisoblangan davlatlarning har biri bitta ovozga ega bo'lgan qo'shma majlisi, o'tkazilishi mumkin.

MDH a'zosi hisoblanmagan davlat vakillari kengashlar majlisida umumiyl kelishilgan holda qaror qabul qilishda qatnashmay, kuzatuvchi sifatida ishtirok, etishlari mumkin.

Kengashlarning rasmiy tili MDH davlatlarining davlat tili hisoblanadi. Ishchi tili rus tilidir. MDXH organlarining faoliyati MDH Nizomi va Ustavi bilan tartibga solinadi.

MDH davlat boshliqlari vahukumat boshliqlari Kengashlari Muvofiglashtiruvchi Komiteti MDHning Ijro organi hisoblanadi. U MDH Nizomi va Ustaviga muvofiq doimiy asosda harakat qiladi.

Komitet a'zodavlatlar Doimiy muhtor vakillari va qotibiyatdan iborat bo'ladi.

Muvofiqlashtiruvchi Komitet qotibiyati unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun o'z hodimlariga ega bo'ladi. Uning vazifalari, jumladan, quyidagilardan iborat:

davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari Kengashlari majlislarini tayyorlash

va o‘tkazish, shuningdek, Hamdo‘stlikning boshqa organlari ishini muvofiqlashtirish va ularga yordam berish;

davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari Kengashlari topshiriqlari ijrosini tashkil etish;

davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari Kengashlari topshiriqlarining bajarilishi bo‘yicha takliflar tayyorlash;

Hamdo‘stlikning yuqori organlari tomonidan qabul qilingan aktlar hal qilinishini hisobga olishni tashkil etish;

ular o‘rtasidagi o‘zaro yordamni amaliy hal etish bo‘yicha axborot va takliflar tayorlash;

bitim va qarorlar bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

davlat boshliqlari va hukumat boshliqlari Kengashlari nomidan ishlab chiqish va kelishib olish uchun MDHning tegishli tarmoqlari maslahatkengashini chaqirish.

MDH qoshida: Iqtisodiy Kengash, Iqtisodiy sud, Mudofaa vazirlari va chegara qo‘sishlari qo‘mondonligi Kengashi ishlaydi.

MDH organlari faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlash harajatlari a’zodavlatlarning hizmat yuzasidan bo‘lgan ishtiroki tartibi bo‘yicha taqsimlanadi va MDH organlari byudjeti to‘g‘risidagi mahsus bitim asosida o‘rnataladi.

MDH byudjeti hukumat boshliqlari Kengashi taqdimiga ko‘ra davlat boshliqlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekistonning tashqi siyosati yo‘nalishlaridan biri Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan to‘g‘ridanto‘g‘ri va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekistonning MDHdagi ishtirokini quyidagi holatlar belgilab beradi. Bular xususida I.A.Karimov o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» (1992 yil) va «O‘zbekiston- kelajagi buyuk davlat». (1993 yil) asarlarida o‘qtirib o‘tgan.

Respublika ichkarisida kuchqudratimiz ishonchli va mustahkam bo‘lishi, xonadonimizni avaylabasrash, mavjud chegaralarni saqlab qolish uchun qudratlari potensialga ega bo‘lgan Rossiya tomonidan madad zarur.

Iqtisodiy muammolarni hal etishda, tanglikdan chiqish yo‘llarini belgilashda o‘zaro ta’sir g‘oyat katta. O‘zbekistonning iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish uchun Rossiyadan respublikamizga hayotiy muhim resurslar- Metall, neft, yog‘och va tahta, transport vositalari, texnologiya uskunalarini va boshqa mollar uzlusiz etkazib berilishi alohida ahamiyatga ega. Ayni vaqtda O‘zbekiston Rossiyaga paxta tolasi, kunjara, xom ipak, mevasabzavot mahsulotlari va boshqa mahsulotlarini etkazib berayotgan asosiy davlatdir.

O‘zbekiston aholisining ko‘pchiligi Rossiya bilan do‘stlikni saqlab qolishni istayotganligini ham hisobga olish zarur. Sobiq markaz bilan emas, balki ayni Rossiya bilan do‘stlikni saqlab qolishni xohlashmoqda. O‘zbekiston boshqa musulmon davlatlari (O‘rtta Osiyo va qozog‘iston, Eron, Pokiston, Turkiya mamlakatlari) bilan ham o‘zaro munosabatlarni- shu jumladan ko‘p tomonlama asosda chuqurlashtirishga intilmoqda.

O‘zbekistonning Xitoy va Hindistonkabi buyuk davlatlar, Janubiy SHarqiy Ooiyodagi yangi industrial mamlakatlar bilan ham munosabatlari samarali rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda Amerika qo‘shma SHatlari, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya boshqa etakchi davlatlar bilan teng huquqli o‘zaro hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Butun tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tashkil etishni chuqur isloh qilishga to‘g‘ri keladi.

CHindan ham qisqa muddat ichida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida uzilkesil hal qilinishi kerak bo‘ladigan ko‘plab muammolar vujudga keldi. Buning uchun, birinchidan, hamkorlikda turli uyushmalarning jahonshumul tajribasini o‘rganish, ikkinchidan, davlatlar va hukumatlar boshliqlarining teztez uchrashib turishi, uchinchidan, har qanday masala loyihibarini muhokama qilish lozim.

Yangi tarkib topgan Hamdo'stlik Markaziy Osiyo Hamdo'stligi. 1993 - yil 34 yanvarda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'rta Osiyo va qozog'iston mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlari uchrashib, bozor munosabatlariga o'tish davrida mintaqqa davlatlaridagi siyosat va iqtisodiyahvolni barqarorlashtirish borasidagi keng doiradagi masalalarni muhokama qildilar.

Uchrashuvning asl maqsadi istiqlolga hech kimniig daxl qilmasligi uchun har bir davlat o'z yo'lidan, o'zaro tinchtotuv va hamkorlikda, jipslashgan holda harakat qilishdan iborat edi.

Mazkur mamlakatlarning har biri o'z manfaatlarini o'ylab ish tutishi tabiiy. SHu bilan birga ularni yagona maqsadiqtisodiy muammolarni qanday qilib bo'lmasin tezroq va osonroq bartaraf etish, mintaqada o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yishdir.

Mazkur mustaqil davlatlar o'rtasidagi teng huquqli va o'zaro manfaatli iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari yuzasidan foydali fikr almashindi.

MDH mamlakatlarida vujudga kelayotgan vaziyat shoshilinch choralar ko'rishni talab etardi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarining yangi¹ Hamdo'stligini barpo etish uchun barcha shartsharoitlarni yaratgandi. Lekin bu O'rta Osiyodagi sobiq respublikalar va qozog'iston MDH bilan aloqalarni butunlay uzmoqchi, degan so'z emas. Ular imzolangan hujjatlarga amal qilishga, teng huquqli o'zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirishga tayyordirlar. Ammo birinchi navbatda bu davlatlar o'z manfaatlarini hisobga oladilar. Markaziy Osiyo mamlakatlari mavjud chegaralarni e'tirof etadilar, ular MDHdagi boshqa davlatlar, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan bundan buyon ham mustahkam hamkorlik qilishga tayyordirlar.

¹Madaniyat, udumi, tiliumumiyo'lgan, kadimdanko'shni — Markaziy Osiyodavlatlari Uzyo'llaridanboradilar. 55 milliondanortikodamyashaydigan Markaziy Osiyomintakasi o'zingiktisodiy salohiyatibilan engravnak topgan mamlakatlar bilan bax slashaoladi.

Uchrashuvda birbirlariga elchilar yuborishga qaror qilindi va bu masalani belgilangan tartibda hech kechiktirmay hal qilishlik Tashqi ishlar vazirliklariga topshirildi.

Davlat boshliqlari fikrlashib olish natijasida hukumatlarga narh siyosati, aloqalarni rivojlantirish, energiya manbalari bilan ta'minlash, Orol va Kaspiydengizlari muammolari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni mintaqaga davlatlarining manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqishni topshirdilar.

Tomonlar Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildilar. Jamg'armaning majlislarini qizil O'rda, Nukus va Toshhovuzda o'tkazish zarur deb topildi.

Davlat boshliqlari mintaqaga yagona axborot doirasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladilar. Televidenie markazi Toshkentda, respublikalararo gazeta tahririysi esa Olmaotada joylashadi. Ayni bir paytda Markaziy Osiyo davlatlarining Fors ko'rfazi va Tnnch okeanga chiqishi masalasi ham o'rganiladi.

Toshkent uchrashuvi yakunlari yuzasidan qo'shma axborot qabul qilindi.

Davlatlararo va hukumatlararo shartnomalar hamda bitimlar ijrosini muntazam nazorat qilib borishning aniq vositalarini ishlab chiqish to'g'risida bir fikrga kelindi.

SHunday qilib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mustaqil suveren davlatlar boshliqlarining Toshkentdag'i uchrashuvi yangi yilning dastlabki kunlarida yirik siyosiy voqe'a bo'ldi. Keng doiradagi bu uchrashuv 1993 yilning birinchi ish kunida o'tganligining o'zi muzokara qilinadigan masalalar o'ta muhim ekanligidan dalolat beradi. CHunki MDH o'tamurakkab, dardchil, ziddiyatlar asosida rivojlanmoqda.

Toshkentdag'i matbuot konferensiyasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga shu qadarshoshilib janoza o'qilmasligi kerakligi o'qtirilgandi. To'g'ri, 1993 - yil 22 yanvarda Minskdag'i uchrashuv og'ir o'tdi. Ayniqsa MDH Ustavi keskin muhokama qilindi, Ukraina, Turkmaniston va Moldova rahbarlari uning qabul

qilinishiga qarshi chiqishdi. Shunga qaramay turli sabablarga ko‘ra uch marta kechiktirilgan. Minsk uchrashuvi burilish vazifasini o‘tadi.

MDHga janoza o‘qilishiga erta, buning uchun hech qanday asosli sabab yo‘q Ko‘pdanko‘p noxush taxminlarga qaramay, Minskdagি uchrashuv MDH barham topishi bir yovda tursin, xatto o‘z mavqeini mustahkamladi. Uchrashuv kun tartibiga 14ta masala kiritilgan edi. Ularning eng muhimlari:

- MDH Ustavi;
- Iqtisodiyot bo‘yicha Maslahat kengashini tuzish haqida; strategic yadro kuchlarini taqsimlash to‘g‘risida;
- Rubl zonasidagi davlatlarning davlatlararo bankini tuzish;
- Tojikiston bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegarani mustahkamlash uchun MDH ning tinchlik o‘rnatuvchi harbiy bo‘linmalarini yuborish;
- Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 50 yilligini nishonlash va boshqalardan iborat.

Uchrashuv qatnashchilarini Davlatlararo bank barpo etish bo‘yicha bitimga erishdilar. Qimmatdor qog‘ozlar bozorini tartibga solish to‘g‘risidagi hujjat imzolandi. Qolgan vaqtning hammasi MDH Ustavi loyihasini muhokama qilishga bag‘ishlandi. qizg‘in tortishuvlardan keyin yangi hujjat ishlab chiqishga qaror qilindi. Hozircha bu hujjatning nomi yo‘q. Ammo unda MDH mamlakatlarining istisosiz hammasi Hamdo‘stlikdagi ahvoldan tashvishlanayotgani va MDH ichidagi munosabatlarni tartibga solishga ko‘maklashadigan hujjatni qabul qilish zarur deb hisoblayotgani to‘g‘risida boradi. Bu hujjat Hamdo‘stlikning hozirgi ahvoldan kutilishiga yordam berishi, binobarin, birinchi galda iqtisodiy muammolarni amalda hal etishga ko‘maklashishi lozim.

Minskda Tojikiston Afg‘oniston chegarasini mustahkamlash uchun o‘n kun mobaynida Hamdo‘stlik mamlakatlarining tinchlik o‘rnatuvchi kuchlari qo‘sishma qismlarini yuborishga qaror qilindi.

Shunday qilib MDH ning oliy darajada Minskda o‘tkazilgan uchrashuvi nihoyasiga etdi.

MDH barham topish o‘rniga o‘z mavqeini mustahkamladi.

1993-yil aprel oyida Moskvada Hamdo‘stlik davlatlari, boshliqlarining so‘nggi uchrashuvi qisqa, lekin juda samarali bo‘lib o‘tdi. Unda 26 ta muhim hujjat imzolandi. Bu hujjatlar MDH mamlakatlarida o‘zaro foydali hamkorlik va iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun keng istiqbollar ochib berilishi shubhasiz deb matbuotda e’lon qilindi.

Uchrashuvning eng muhim jihatlari to‘g‘risida gapirganda milliy yoki etnik jihatdan, tili va dini jihatidan kamchilikni tashkil etuvchi shaxslarning huquqlarini ta’minalash konvensiyasiga to‘htalmaslik mumkin emas. O‘zbekiston bu hujjatga imzo chekkani tabiiy holdir.

Uchrashuvda mudofaa muammolariga alohida e’tibor berildi. Kollektiv tinchlik kuchlarining Tojikistonda yo‘lish muddati, tarkibi va vazifalari haqida; kollektiv tinchlik kuchlari qo‘mondoni to‘g‘risida; Rossiya Federatsiyasi, Markaziy Osiyo va Kavkaz orti davlatlarining uchunchi mamlakatlar bilan chegaralarini qo‘riqlashda hamkorlik qilish xususidagi muzokaralarining borishi to‘g‘risidagi kabi muammolar ko‘rib chiqildi. Hali hal qilinmagan muammolar bor, lekin ularni hal etishdan o‘zini chetga olish mumkin emas deb qayd etildi.

Xulosa

Suveren O‘zbekiston milliy davlatchilik nazariyasining siyosiy va huquqiy asoslarining o‘rganish va umumlashtirish orqali dunyoviy davlat va jamiyat qurilishini yanada takomillashtirish hamda erkinlashtirish, milliy davlatchilikda Konstitutsianing o‘rni va mavqeini, demokratik huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashda yangi g‘oyalar bankining taklif etilgani Bitiruv malakaviy ish mavzusi dolzarb belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning zarurligini ta’minlovchi salmoqli ilmiy asos davlatchilik nazariyasida ilk bor yaxlit holda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishning ilmiy amaliy muammolari bevosita Prezident Islom Karimovning siyosiyhuquqiy ta’limoti negizida o‘rganilganidir.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’limotida milliy davlatchilik nazariyasi hamda amaliyoti milliy sharoit, qadriyatlar, an’analar, davlatchiligimiz tarixi va jahon dunyoviy davlatchiligi tajribalarining uyg‘unligi silsilasida milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqilgani holda majmuiy konseptual ishlab chiqildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishning siyosiyhuquqiy asoslari yaratilganligi, yaratilayotgan mavzu dolzarbligini belgilovchi konseptual negiz hisoblanadi.

Demokratik huquqiy davlat barpo etish bilan bog‘liq, «o‘zbek modeli» ning afzalliklari, istiqbolligi, rivojlangan dunyoviy davlatlar tajribalari, mustamlaka bo‘lgan o‘lka o‘rnida demokratik davlat barpo etishning huquqiy asoslari ilk bor tipologik mushtaraklikda maxsus ilmiy tadqiq etilgani va nazariy umumlashtirilganida ham ko‘rinadi.

Huquqshunoslik ilmida, siyosiyhuquqiy ta’limotida demokratik davlat barpo etish, hamda milliy davlatchilik nazariyasini huquqiy asoslarini o‘rganish va tadqiq qilish yangi yo‘nalishda davom etmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston istiqlolli va taraqqiyot yo‘lining mashhur bosh tamoyili belgilab berildi. Ularning barchasi bevosita demokratik huquqiy davlat barpo etishning nazariyamaliy muammolariga daxldordir. Davlatning bosh islohotchi ekanligi tamoyili, kuchli davlat kelajagi buyuk davlat g‘oyasi fikrimiz isbotidir.

O‘zbekistonda milliy davlatchilikning shakllanishi tarixdan qadimgi davr davlatchiligi Xorazm voxasidir. Xorazm tarixi tosh asriga borib taqaladi. Bu o‘lkada O‘rta Osiyoning qadimgi qabilalari sak massagetlar istiqomat qilganlar. Ular katta ittifoqqa birlashganlar. Bu ittifoqqa kirgan qabilalar vatani «Xvayrizem», ya’ni «quyoshli o‘lka» deb atalgan.

O‘zbekistonda demokratik davlat shakllanishi nazariy asoslari haqida degan bo‘limda huquqiy davlat tushunchasi belgilari va asosiy tamoyillari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etish jarayoni; huquqiy davlat shakllanishining asosiy bosqichlari haqida. Demokratik huquqiy davlatning Konstitutsiyaviy asoslari bayon etildi.

O‘zbekistonda huquqiy davlatchilik tamoyillarini qaror topishi; Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash muammolari; Davlat hokimiyatlari va vakolatlari taqsimlanish tamoyillari; Demokratik siyosiy tizim va siyosiy pluralizm tamoyillari tadqiq etildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ustuvor himoyalash ularni klassifikatsiyasi; davlat va fuqaroni o‘zaro mas’uliyati tamoyili ko‘rib chiqildi. Xalq hokimiyatchiligi milliy davlatchilik taraqqiyotini asosiy faktori ekanligi hamda tamoyillari kabi muammolari ko‘rib chiqildi. O‘zbekistondagi yangi parlamentning faoliyati haqida; Ikki palatali parlamentga o‘tish Milliy davlatchilik taraqqiyotida alohida bosqich ekanligi haqida yangi parlament va qonun chiqarish jarayoni ko‘rib chiqildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillari uning konstitutsiyaviy asoslari tadqiq etildi.

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari:

1. Suverenitet nazariyasi jamiyatni rivojlantirishning kapitalizm va feodalizm oralig‘ida vujudga keldi, aniqrog‘i feudal Fransiya davlatida paydo bo‘ldi. XV asr oxirida «Suveren» nomi davlat boshliqlariga nisbatan qo‘llanildi. Suverenitet nazariyasi asoschilari va davomchilari quyidagilar bo‘lib hisoblanadi, ya’ni J. Boden, G. Ellinek, N I Polienko, I.Traykin, A X Saidov, U. Tadjixanov, B. Tadjixanov.

Suverenitetning aniq davlat huquqiy tushunchasi XVI asrga taalluqlidir. Xar qanday davlat mustaqil, suveren bo‘lishi lozim, suveren xokimiyat mutloq va cheksiz xisoblanadi. U o‘z ustidan boshqa xech qanday xokimiyat bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim deydi.

Davlat suvereniteti nazariyasi Gegel tomonidan yaratilgan. U davlat suverenitetini ichki va tashqi jihatga ajratib o‘rgatgan. CHunki davlat xam ichki, xam tashqi tomongan mustaqil va oliy xokimiyat deb ta’kidlaydi. Uni fikriga asosan monarx, davlat boshlig‘i, birligi, ustuvorligi va mustaqil. Davlat suvereniteti bu manarxning o‘zi degan xulosaga keladi. U o‘zining «Falsafa tarixi bo‘yicha ma’ruzalari»da davlat tashqarisida ozodlik yuq. U ozodlikni faqat davlatgina berishi mumkin davlat bu monarx, xalq emas. monarxsiz xalq davlat emas deb o‘rgatadi.

Suverenitetda uni tashkil etuvchi usta jixatini ajratib ko‘rsatish mumkin, u uch jihatni (ustuvorlik, birlik mustaqillik) ushbu uchta jihatning birligi davlat xokimiyatining suverenitet deb ataladigan xususiyatini tashkil etadi.

2. Davlat vahuquq nazariyasi fanida suverenitetining bir nechta turlari mavjud ekanligi xam ma’lum. Ular davlat suvereniteti va milliy suverenitetdir. Davlat suvereniteti ta’rifiga kelsak u quyidagilardan iborat: dastavval «suverenitet» so‘zi oliy hokimiyat ma’nosini anglatsa oliy xokimiyat egasi esa barcha aristokratlar va diniy feodallar ustidan xukmron hisoblangan.

3. Davlat chegarasi va davlat hududida muammosi davlat suverenitet nazariyasida muhim o‘rin egallaydi, chunki bular davlat suvereniteti muxim belgisi (atributi) hisoblanadi. Davlat chegarasi davlatning quruqlikdagi daryo va

ko‘llardagi havo, dengizdagi chegaralariga bo‘linadi. Daryodagi davlat chegarasi daryolar bo‘yicha o‘tadi, bunda agar xalqaro shartnomalarda boshqacha hamda belgilanmagan bo‘lsa, ko‘pincha kema qatnaydigan daryolardan - asosiy farvoterning o‘rtasida yoki daryoning chalovegasidan (eng chuqur joylari chizig‘idan), kemalar qatnaydigan daryolar - asosiy farvaterning o‘rtasidan yoki daryoning talvegasidan (eng chuqur joylari chizig‘idan) kemalar qatnamaydigan daryolar (soylar)da, esa - ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy ilmog‘i o‘rtasidan o‘tuvchi chiziq chegara xisoblanadi.

Davlat xududi masalasiga kelganda albatta biz uni umumiy geografiko‘rnini, uni ma’muriy - hududiy bo‘linishini ko‘z oldimizga keltirib o‘tishlikni o‘rinli deb sanaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi maydoni 447,4 ning kv.km. O‘zbekiston mustaqillika erishgach sho‘rolar davrida ommaviy tus olgan va sho‘rolar tuzumini madh etuvchi joy nomlari bekor qilinib tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki endi nomlar berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi konstitutsiyasida (68 modda) O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar tumanlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

4. Fuqarolik davlat suvereniteti nazariyasida muhim o‘rin egallaydi va muhim belgi (atribut) xisoblanadi. Har qanday davlatda, uning davlat tuzilishi shaklidan qat’iy nazar yagona fuqaroliko‘rnataladi. Har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo‘la oladi, bu juda muxim qoida. Konstitutsiyaga binoan O‘zbekiston Respublikasining butun xududida yagona fuqaroliko‘rnatalgan. O‘zbekiston fuqaroligiga ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari xamda tartibi qonun bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z xududida ham, uning tashqarisida xam o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga xomiylikko‘rsatishni kafolatlaydi.

5. Fuqarolik muammosini huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida «Qonun;

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog‘liq masalalarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizom» hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari Respublika Prezidentining 1992 - yil 20 noyabrdagi farmoni kabilar tashkil etildi.

Davlat suvereniteti muxim atributlari qatoriga davlat ramzlari - gerb, bayroq, madhiya, valyuta va davlat tili kiradi. Davlat ramzlari suveren davlatning o‘ziga xos, farqlovchi belgilari bo‘lib, ularni ba’zan davlat emblemasi deb ham ataydilar.

Davlat bayrog‘i suveren davlatning farqlovchi belgilari, ramzlari, emblemalaridan biridir. U bizning ko‘hna o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va buyukkelajamizning ramzidir. Davlat bayrog‘ini behurmat qilgan shaxslar O‘zbekistonning amaldagi qonun xujjaligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Davlat gerbi mamlakatning rasmiy davlateblemasi va ramzidir. Gerbning yuqori qismida O‘zbekistonning sobiq va barqarorligi ramzi bo‘lgan sakkiz qirrali yulduz tasfirlangan bo‘lib, uning ichida yarim oy vabesh qirrali yulduz ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

Davlat madxiyasi davlat birligi ramzi sifatida qabul qilingan tantanali kun bo‘lib, madxiya matni vatanparvarligi tuyg‘usini mamlakat tarixiga, uning davlat tuzumiga hurmat ehtiromni aks ettiradi. Davlat madhiyasi tantanali yig‘ilish va marosimlar hamda davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan boshqa tadbirlar vaqtida xususan yangi saylangan Prezident tantanali qasamyod qilganidan keyin O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarilgan vaqtida, Oliy Majlis Senatining ochilish va yopilish vaqtida, chet el mexmonlari kelganda, bayramlarda va boshqa tantanalarda hamda harbiy marosimlarda, sport bayramlarida ijro etiladi.

Milliy valyuta davlat suverenitetining muhim belgisi va alomatidir. Milliy valyuta - sum 1 iyul 1994 yilda muomalaga kiritildi.

Davlat tili milliy til bo‘lib qonun chiqaruvchi organlar va boshqa davlat organlarida ish yurituvchi va sud ishlarini yuritish shu tilda olib boriladi. Boshqa

davlat tili o‘zbek tili, unga davlat tili maqomi berilgan. Aloxida qonun qabul qilingan. Rasmiy ish yuritish ommaviy axborot vositalarida tollardan foydalanish qonunlari belgilangan.

6. Davlat suverenitining yana bir muhim elementi bu tashqi siyosatdir. O‘zbekiston suveren davlat sifatida chet el mamlakatlari bilan bevosita diplomatik, konsullik darajasida munosabatlar o‘rnatadi.

O‘zbekiston boshqa davlatlarning xalqaro uyushmasiga teng huquqli a’zosi. Hozirgi kunda O‘zbekiston mustaqilligini 160 dan ortiq mamlakat tan oldi. 130 ga yaqin tarixiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabat o‘rnatdi. Toshkent ko‘p mamlakatlar elchixonalari ochildi. O‘zbekiston BMT ga qabul qilindi. Bir qancha xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi.

Davlatlararo munosabatlar tuzildi, munosib o‘rinni egallayman degan xar qanday davlat oldida yagona to‘g‘ri yo‘l borbu xalqaro huquq xamda xalqaro normalarga sidqidildan va so‘zsiz amal qilishdir.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi mustahkamlana borgan sari uni chet el mamlakatlari bilan aloqalari yanada kengaymoqda. Keyingi yillarda mustaqil tashqi siyosat tizimi yanada shakllanmoqda. Bevosita aloqalar rivojlanmoqda. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalar rivojlanmoqda.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOT

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. -T.: “O‘zbekiston”, 1996364.b.
2. Karimov I.A Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. - T.: “O‘zbekiston”, 1996380b.
3. Karimov I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.. T. 3. -T.: “O‘zbekiston”, 1996366.b.
4. Karimov I.A Bunyodkorlik yo‘lidan. T. 4. -T.: “O‘zbekiston”, 1996349b.
5. Karimov I.A YAngicha fikrlash va ishlashdavr talabi. T. 5. -T.: “O‘zbekiston”, 1997384.b.
6. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. -T.: “O‘zbekiston”, 1998429.b.
7. Karimov I.A Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. -T.: “O‘zbekiston”, 1999410.b.
8. Karimov I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayoi pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.: “O‘zbekiston”, 2000528b.
9. Karimov I.A Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas’ulmiz. T. 9. -T.: “O‘zbekiston”, 2001432.b.
10. Karimov I.A Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. -T.: “O‘zbekiston”, 2002432.b.
11. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T. 11. -T.: “O‘zbekiston”, 2003320b.
12. Karimov I.A Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuchqudratimizga, xamjixatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. -T.: “O‘zbekiston”, 2004 - 400.b.
13. Karimov I.A O‘zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. -T. “O‘zbekiston”, 2005448b.

14. Karimov I.A Inson, uning huquqi va erkinliklarioliy qadriyat. -T.: “O‘zbekiston”, 2006576.b.
 15. Karimov I.A Jamiyatni erkinlashtirish, isloxtatlarni chukurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalkimizning xayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadida T.15 Toshkent “O‘zbekiston”, 2007 - 328 b.
 16. Karimov I.A YUksak ma’naviyat - engilmas kuch. Toshkent Ma’naviyat, 2008 - 176 b.
-
17. Abdullaev M.I., Komarov S.A. Problemy teorii gosudarstva i prava. -SPb.: Piter, 2003.576s.
 18. Batler U., Kirilenko O.V. O‘zbekiston Qonunchiligi tizimi A.Saidovning taxriri ostida. -T.,2000252b.
 19. Burinov.YU Xalqaro hamkorlikni huquqiy poydevori. Xalq so‘zi 2008 - yil 6 avgust.
 20. Davlat va huquq nazariyasi. H.T.Odilqoriev va H.B.Boboevlarning umumiylahriostida. -T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashryot uyi, 2000.528b.
 21. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi Mas’ul muxarrir: A.X.Saidov.T., Adolat, 2003280b.
 22. Odilqoriev X.T O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni.T., 1995207b.
 23. Odilqoriev X.T Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati..T., 2002320b.
 24. Odilqoriev X.T Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik jarayoni.T., 200540b.
- Qonunlar va boshqa normativhuquqiy hujjatlar.
25. 20.“O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991 y., 15 fevral. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1991y, 4son, 76modda.

26. “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991y., 14 iyun. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1991 yil, 8son, 193modda.
27. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiasoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991y., 30 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1991 yil, 912son, 268modda.
28. “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991y., 18 noyabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 1son, 27modda.
29. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991y., 18 noyabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 1son, 34modda.
30. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtrish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1991y., 19 noyabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 1son, 43modda.
31. “O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 2 iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 9son, 328modda.
32. “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 2 iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 9son, 338modda.
33. “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 2 iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 9son, 344modda.
34. “O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 3 iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 9-son, 349-modda.

35. “O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiyadaraja va martabalari belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 3 iyul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 9son, 350modda.
36. “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 3 iyul.(Yangi taxrirda 11.05.2001y) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 yil, 10son, 398modda.
37. “Hokimiyatning konstitutsiyaviy idoralarini qo‘riqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 9 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 yil, 1son, 9modda.
38. “O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992y., 10 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 yil, 1son, 52modda.
39. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993y., 6 may. (Yangi taxrirda 29.08.2003) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 yil, 5son, 202modda.
40. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993y., 6 may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 yil, 5son, 221modda.
41. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993y., 6 may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993 yil, 5son, 223modda.